

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS

TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

JAHON SIYOSATI, TARIX VA FALSAFA FAKULTETI

SHARQ FALSAFASI VA MADANIYATI KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

NURIDINOV JAVOHIR IZOMOVICH

**INDONEZIYANING IJTIMOIIY – MADANIY RIVOJLANISHIDA
SUKARNONING ROLI**

5120500 – Falsafa

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: falsafa fanlar nomzodi,

dotsent **Po‘latova D.A.**

Toshkent – 2015

Mundarija

Kirish	3
I bob. XX asr birinchi yarmida Indoneziyaning ijtimoiy – madaniy, iqtisodiy – siyosiy hayoti	
1.1. XX asr birinchi yarmida Indoneziyadagi ijtimoiy-madaniy hayot.....	9
1.2. Sukarnoning hayoti va faoliyati.....	22
II bob. Sukarnoning ijtimoiy – falsafiy qarashlari.....	
2.1. Sukarno jamiyat va uning taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omillar haqida.....	33
2.2. Sukarnoning “Panchasila” ta'limoti va uning Indoneziya ijtimoiy – madaniy rivojiga ta'siri	42
Umumiy xulosalar	58
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	62
Ilovalar	

KIRISH

Bugun xalqimizga shu narsa aniqki, o'z oldimizga qo'ygan maqsad va vazifalarga erishishning yagona yo'li bor. U ham bo'lsa – Respublikaning mustaqilligiga erishishdir¹.

Har bir davlat mustaqil bo'lishdek sharafiga erishish haqiqatdan ham hozirgi davrning eng zaruriy talabidir va bu mustaqillikni asrab-avaylash muhimdir. Mustaqillik insonlarga ko'p narsalar beradi. Mustaqillikka erishish uchun kurashish va yana kurashish zarur. “Merdeka atau mati!”, “Ozodlik yoki o'lim!” shiori ostida xalq jipsligi zarur. Mustaqillikka erishishni o'z oldiga maqsad qilgan yetakchi shaxslar bu maqsad uchun jonlarini fido qilishga ham tayyor bo'ladilar. Shunday shaxslardan biri Sukarnodir. Uning Indoneziyaning milliy-ozodlik harakatiga yo'lbo'shchilik qilganligi hammaga ma'lum. Mustamlakachilar tomonidan tahqirlanib bir marta qamoqqa hukm qilinib, yana surgunda ham hayot kechirdi. Hayotining ikki yilini qamoqqa va sakkiz yilini surgunda o'tkazgan bu fidoiy inson haqiqatdan ham Indoneziyaning faxri, qahramoni, faylasufi bo'lishiga loyiq deb o'ylayman. Shuncha mashaqqatlar chekib axiyri Sukarno Indoneziyaning mustaqilligini e'lon qildi. Bu mustaqillikni saqlab qolish ham nihoyatda qiyin bo'ldi. Lekin Sukarno tomonidan ilgari surilgan g'oyalar xalqni oyoqqa turg'izdi va davlatning mustaqilligini saqlab qoldi. Uning “Marhaenizm” g'oyasi xalqning ko'nglidan joy olgan edi.

Sukarno O'zbekistonda ilk bor tashrifida: “Men juda uzoq yerdagi mamlakatdan, Osiyo bilan Avstraliya o'rtasida, Hind okeani bilan Tinch okeani o'rtasida joylashgan mamlakatdan bu yerga keldim. Men sizlarga Indoneziya xalqidan salom keltirdim. Indoneziya Respublikasida “Panchasila” prinsiplari asosida turli tabaqalarning vakillari o'z dinlariga erkin amal qiladilar”² degan edi.

Bundan tashqari, “Indoneziyada xilma-xil dinlarga rioya qiluvchi kishilar yashaydi. Indoneziyada musulmonlar, xristianlar, buddistlar bor. Shunday bo'lsa ham, Indoneziya xalqi o'zini yaxlit bir xalq deb hisoblaydi va indoneziyaliklar bir-

¹ Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.; “O'zbekiston”, 2011. – 401-bet

² Namozov N. Sukarno va O'zbekiston. – T.; “Fan” nashriyoti, 2004. – 215-bet.

birlarini indonezcha “merdeka” soʻzi bilan tabriklaydi. “Merdeka”- “ozodlik” demakdir”³.

“Suveren davlatning har bir rahbari, har bir yetakchisi oddiy kishilar ishonch bildirib, uning zimmasiga yuklangan juda katta burch va masʼuliyatni teran anglab, oʻy-hayolini hamisha tinchlik, osoyishtalikni saqlash, avaylash va mustahkamlashga qaratmogʻi kerak. Ushbu murakkab, ijtimoiy voqealarga boy yillarda poydevorini mustahkam qoʻyishga muvaffaq boʻlgani, yangi uyni qurish va obod qilish uchun oʻrnimizga keladigan avlod oldidagi masʼuliyatimizni bir daqiqa boʻlsin unutishga haqqimiz yoʻq⁴”. Biz bu satrlarni oʻzbek milliy davlatini bugungi asoschisi, jahon siyosatdonlari orasida tanilgan davlat arbobi Islom Karimovning asarida oʻqiymiz. Haqiqatdan ham Sukarno Indoneziya jahon hamjamiyatida boshqa davlatlar qatori ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan mustahkam boʻlishi uchun kurashdi.

Mavzuning dolzarbligi. Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 2014 yil 15-16 may kunlari Samarqand shahrida oʻtgan “Oʻrta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati” mavzuidagi Xalqaro konferensiyasida : “ Bugun hech bir mubolagʻasiz aytish mumkin va buni men alohida qayd etmoqchiman, Oʻrta asrlar Sharq daholarining buyuk kashfiyotlaridan iborat ilmiy merosning chuqur qatlamlari hali chuqur oʻrganilmagan va oʻz tadqiqotchilarini kutmoqda⁵”, degan fikrlari, shuningdek, Toshkent Davlat Sharqshunoslik Institutining “Sharq falsafasi va madaniyati” kafedrasini mudirasi, falsafa fanlari nomzodi, dotsent Dildor Poʻlatovanning: “Bugungi kunga kelib, Gʻarb falsafasi nisbatan har tomonlama oʻrganilgan boʻlsa-da, Sharq falsafasi hali yetarli darajada chuqur tadqiq qilinmagani sir emas. Buning bir qancha sabablari bor. Birinchidan, yevropamarkazchilik mafkurasi taʼsirida Sharq madaniyati, xususan, Sharq

³ Namozov N. Sukarno va O'zbekiston. – T.;. “Fan” nashriyoti. 2004. 216- bet.

⁴ Karimov I.A “Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” –T.;. “Oʻzbekiston”, 1997. 7-bet.

⁵ Karimov I.A. Oʻrta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati mavzuidagi Xalqaro konferensiyasida soʻzlagan nutqi. // “ Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati”, 2014.

falsafasiga bepisand qarab kelindi. Qolaversa, Sharq tillarini chuqur biladigan, manbalarni o'rganib tahlil eta oladigan faylasuf-mutaxassislarning yetishmasligi, jahonda insonning ma'naviy kamoloti masalalarini nazardan chetda qoldirish hisobiga, ko'proq g'arbcha pragmatizm va texnokratizm falsafasining rivojlantirilishi kabi sabablar ham shular sirasidan⁶”, fikrlari biz yosh sharqshunos faylasuflarni nazarimizdan chetga qolmadi. Men Sharq tillaridan biri bo'lgan indonez tilini o'rganib, aynan shu tildan ilm-fanga foydasi tekkan, inson haqida ilmiy ish qilishni niyat qilgandim. Bugun men manashu niyatimga yetdim. Bundan keyin ham indonez tilidan o'zbek tiliga ilmiy-falsafiy asarlarni tarjima qilishni o'z oldimga maqsad qilib qo'yganman.

Jahon ijtimoiy-siyosiy hayotida o'z ezgu harakatlari bilan yangilik kiritgan shaxs sifatida tan olingan Sukarno uch yarim asrdan ko'proq vaqt davomida o'zgalar tomonidan “Niderlandiya Hindistoni” deb nomlanib, mustamlaka holatidan davlatning mustaqillikka erishishi uchun kurashganlarning yetakchisi, rahnamosi bo'lgan. U mustaqil Indoneziya Respublikasining tamal toshini qo'ygan arboblardan biri. Sukarno boshchiligida 1945 yilning 17 avgustida mustamlaka bo'lgan mamlakat mustaqil deb e'lon qilindi. 1945 yildan 1968 yilgacha mamalakatni boshqarib, deyarli barcha sohalarda reformalar o'tkazdi, xalqni kolonializm asoratidan ozod qildi.

Sukarnoning eng asosiy yutug'i ko'p millatli indonez davlatini tuzishda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy-madaniy sohalaridagi olamshumul tarixiy ishlarida muhim vosita bo'lgan davlat tilini rivojlantirishda ham tashabbuskor bo'ldi.

Sukarnoning ijtimoiy faoliyati faqat siyosat bilan chegaralanmay, uning faoliyatida insonga xos bo'lgan yaratuvchanlik ishlari ko'zga yaqqol tashlanadi. Sukarno yuksak g'oya uchun qomusiy bilimga ega bo'libgina qolmay, balki u tarixchi, yozuvchi, filosof olim ham edi. Shu bois Sukarno o'z davrining buyuk arbobi sifatida ko'pgina mamlakatlar Prezidentlaridan ajralib turgan. U oliy

⁶ Po'latova D. Igna bilan quduq qazib. // Toshkent. “ O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2015. 20 - soni

ma'lumotli, bir necha xorijiy tillarni mukammal bilgan, o'tkir notiq, rassom, muhandis – dizayner edi.

Sukarno XX asrning 40 yillarida jahon milliy xalq harakatining sardori sifatida ham yuqori o'rinlardan joy olgan. Malumki, Indoneziya 1945 yilda, Hindiston 1947 yilda, Xitoy Xalq Respublikasi 1949 yilda mustaqillikka erishgan edi. Ko'rinib turibdiki, Sukarnoning xalq milliy ozodlik yo'lidagi harakatlari boshqa Sharq davlatlaridan oldin boshlangan va tabiiyki, uning boshqa mamlakatlarga ijobiy ta'siri bo'lganligini aytish mumkin. Ayniqsa, uning tashabbusi bilan 1955 yilda Indoneziyaning Bandung shahrida Osiyo va Afrika davlatlarining konferensiyasini o'tkazishi diqqatga sazovordir. Ushbu konferensiyaning jahonning barcha davlatlari bilan o'zaro mafaatdorlik, tenglikka asoslangan tinch-totuv yashash prinsiplari "Panchasila"ning hayoti va boshqalar tomonidan qo'llab- quvvatlanganligi, Indoneziyaning obro'-e'tiborini dunyoga keng tarqatdi va mamlakat prezidentining ulug'lanishiga olib keldi. Tarixda Sukarno musulmon xorijiy davlat boshlig'i sifatida olamga mashhur hadisshunos Xo'ja Ismoil al-Buxoriy maqbarasini xalq borib ziyorat qiladigan muqaddas manzil bo'lishiga o'zining bebaho hissasini qo'shgan birinchi kishi sifatida ulug'lanadi.

Mavzuning dolzabligi shundaki, Sukarno tomonidan ilgari surilgan g'oyalarni, fikrlarni chuqurroq o'rganish. "Panchasila"da keltirilgan go'yalarni bugungi kundagi ahamiyatini o'rganishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti. Sukarnoning ijtimoiy- falsafiy, iqtisodiy- ma'naviy qarashlari, "Marhaneizm" g'oyasi, "Panchasila" ta'limotidagi fikrlar bitiruv malakaviy ishining obyekti hisoblanadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Indoneziyaning birinchi prezidenti Sukarno haqida ko'plab ma'lumotlar topish mumkin. Chunki u nafaqat musulmon olamida , shu bilan birga jahonda ham mashhur shaxsdir. Bernhard Dahm⁷ uning siyosiy biografiyasi haqida asar yozgan, Donald E. Weatherbee⁸ Sukarnoning

⁷ Bernhard Dahm. Sukarno and the struggle for Indonesian Independence. 1969.

⁸ Donald E. Weatherbee .Ideology in Indonesia: Sukarno's Indonesian Revolution.1966

gʻoyalarini oʻrgangan. Hal Kosut⁹, Sindi Adams¹⁰ uning hayoti haqida juda asosiy va haqiqiy maʼlumotlar bergan.

Oʻzbekistonda Sukarnoning hayoti va faoliyati haqida Nasim Namozov¹¹ ilk bor monografiya yozadi. Boshqa maʼlumotlar oʻzbek tilida kam oʻrganilgan.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Indoneziya ijtimoiy – maʼnaviy, siyosiy - iqtisodiy rivojlanishida Sukarnoning roli, “Panchasila” taʼlimotining ahamiyati.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi Indoneziya ijtimoiy-maʼnaviy rivojlanishida Sukarnoning qilgan xizmatlari va ijtimoiy-falsafiy qarashlarini oʻrganish. “Nasakom”, “Marhaenizm”, “Panchasila” gʻoyalarini mazmun va mohiyatini ochib berish. Jamiyat va uning taraqqiyotiga taʼsir etuvchi omillarni aniqlash.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

1. Sukarnoning Indoneziya tarixida tutgan oʻrni oʻrganish.
2. Sukarnoning Osiyo va Afrika davlatlari oldida xizmatini tahlil qilish.
3. Sukarnoning Indoneziyaning ijtimoiy- maʼnaviy rivojlanishida tutgan rolini oʻrganish.
4. Sukarno tomonidan ilgari surilgan jamiyat va uning taraqqiyotiga taʼsir etuvchi omillarni tahlil qilish

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Sukarno asarlarida ilgari surilgan gʻoyalarni tahlil qilish va bizning milliy gʻoya bilan oʻxshash va farqli tomonlarini aniqlash. Oʻzlikni anglashda Sukarno fikrlarining ahamiyati bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligini tashkil etadi. Bundan tashqari Sukarno haqida batafsil maʼlumot beruvchi asarlar hali oʻzbek tilida tarjima qilinmagan bir vaqtda bu malakaviy ishning ilmiy yangiligini yanada oshiradi.

⁹ Hal Kosut. Indonesia; The Sukarno Years.1967

¹⁰ Cindy Adams. Sukarno: An autobiography as Told to Cindy Adams.1965

Cindy Adams. My Friend the Dictator. 1967.

¹¹Namozov N. Sukarno va Oʻzbekiston. – T; . “Fan” nashriyoti, 2004.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Hozirgi globallashtgan zamonda har bir millatning o'zligini saqlab qolgan holda o'ziga xos sivilizatsiyani yaratishda Sukarno ilgari surgan millatparvarlik g'oyalarni amalda qo'llash.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, to'rt paragrafni o'z ichiga olgan ikki bobdan, shuningdek umumiy xulosa , foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

I BOB. XX ASR BIRINCHI YARMIDA INDONEZIYANING IJTIMOIY – MADANIY, IQTISODIY – SIYOSIY HAYOTI

1.1 XX asr birinchi yarmida Indoneziyadagi ijtimoiy-madaniy hayot.

Tiga setengah abad lebih, bangsa kita dijajah bangsa asing. Tahun 1511 Bangsa Portugis merebut Malaka dan masuk kepulauan Maluku, sebagai awal sejarah buramnya bangsa ini, disusul Spanyol dan Inggris yang juga berdalih mencari rempah - rempah di bumi Nusantara. Kemudian Tahun 1596 Bangsa Belanda pertama kali datang ke Indonesia dibawah pimpinan Houtman dan de Kyzer. Yang puncaknya bangsa Belanda mendirikan VOC dan J.P. Coen diangkat sebagai Gubernur Jenderal Pertama VOC.¹²

“Uch yarim asrdan ortiqroq davr mobaynida bizning millat chet elliklarga tobe bo‘lishgan. Xuddi oldindan rejalashtirgandek 1511 yil Portugallar Malakani egallashadi va Maluku oroliga kirishadi, bunga qo‘shimcha, Ispaniya va Angliya ham Arxipelagdan yer qidirayotgan edi. 1596 yilda Niderlandlar Houtman va de Kyzer boshchiligida birinchi marta Indoneziyaga kelishadi. Niderlandlar VOC (Verenigde Oostindische Compagnie) “Niderlandiya Sharqiy Hindistoni Kompaniyasi” va J.P Koenga asos solishadi va uni VOCning Birinchi General Gubernatorligi deb nomlashadi.”

Penjajahan Belanda berakhir pada tahun 1942, tepatnya tanggal 9 Maret 1942 Pemerintah Hindia Belanda menyerah tanpa syarat kepada Jepang. Sejak saat itu Indonesia diduduki oleh bala tentara Jepang.¹³

“Niderlandiya mustamlakachiligi 1942 yilda tugatiladi, 1942 yil 9 martda Niderlandiya Hindistoni yetakchilari Yaponiyaga so‘zsiz taslim bo‘ladi. Shu vaqtdan boshlab, Yaponiya armiyasi askarlari tomonidan Indoneziya egallanadi.”

1942 yil fevral oyida Yaponiya Imperiyasi Niderland Sharq Hindistonini zudlik bilan egallash uchun marsh boshlaydi. Niderlandlar Sukarnoni Bengkuludan

¹² Junaidi Rahman. Sejarah lahirnya Pancasila. Sebagai Ideologi & Dasar Negara. (Panchasilaning yaratilish tarixi . Davlatning asosi va mafkurasi sifatida.) Jakarta. 2011. 1-bet

¹³ O‘sha bet.

300 kilometr uzoqlikda joylashgan Padang shahriga olib kelishadi. Uni Avstraliyaga yuborishmoqchi bo'lishadi, ammo Padangda Yapon qo'shinlari yaqinlashganligi sababli qoldiriladi. Niderlandlar Yaponlarga taslim bo'lishadi. Sukarno Yaponlarni quvonch bilan qarshi oladi. Sumatradagi Yaponiya qo'mondoni ham uni hurmat bilan kutib oladi. Sukarno Indoneziyaning ozodlikka erishishida Yaponlar yordam berishiga chin dildan ishonadi.¹⁴ "Ollohga shukur, Olloh meni ko'rdi. Ha, Indoneziya Yaponlar yordamida mustaqillikka erishadi. Men hayotimda birinchi marta o'zimni Osiyo oynasida ko'rdim" deb Ngrai vodiysida aytadi. 1942 yil iyulida u Jakartaga qaytib, Yapon qo'mondoni general Nitoshi Imamura bilan uchrashadi. Ikkinchi Jahon urushini olib borishi uchun Yaponiyaga Indoneziyaning inson kuchi va tabiiy resurslari zarur edi. Yaponlar millionlab ischi kuchlarini temiryo'llar, aviatsiya yerlari va boshqa xizmatlar uchun safarbar qilishgan. Bunga qo'shimcha ravishda, Yaponlar guruch va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini olib chiqib ketishgan. Dehqonlar yetishtirgan kanakunjut moyini aviatsiya uchun yoqilg'i va moylash maqsadida olib ketilgan.

1943 yil 9 martida Yaponlar yangi Pusat Tenaga Rakyat(Putera) "Xalq kuchini jamlash" tashkilotini tuzadi¹⁵. Unga Sukarno, Hatta, Hajar Devantara va Mas Mansur boshchilik qilishadi. Keyinchalik Sukarno Puteraga rahbarlik qilishni o'zi uchun uyat hisoblaydi. Chunki juda ko'plab aholi aziyat chekayotgan edi. Yaponiyaning oziq-ovqat mahsulotlarini olib chiqib ketishi natijasida 1944 - 1945 yillarda bir milliondan ziyod Java oroli aholisi ocharchilikdan halok bo'ladi.

1943 yil 10 noyabrda Sukarno va Hatta Yaponiyaga 17 kunlik safar uyushtiradi. Ular Imperator Hirohito tomonidan orden bilan mukofotlanadi va bosh vazir Hideki Tojoning uyida tushlik qilishadi. 1944 yil 7 sentabrda urush Yaponlar uchun yomon tomonga o'zgargani uchun Bosh vazir Kuniaki Koiso Indoneziyaga mustaqillik berishga va'da beradi. Bu yangilik AQSH rasmiy tarixiga Sukarno Yaponlar bilan hamkorlik qilganligining buyuk dalili deyiladi va "mashhur sotqin

¹⁴ Bung Karno. Penyambung Lidah Rakyat Indonesia.(Indoneziya xalqining birlashishi) Jakarta.1965. 65-bet

¹⁵ Colin Brown. A short history of Indonesia. (Indoneziyaning qisqacha tarixi.) Australia."Talisman", 2011. 145-bet

yetakchi” nomi bilan qoladi. 1945 yil 29 aprelda Filippin Amerikaliklar qo‘liga o‘tganidan so‘ng, mart oyida Yaponlar Badan Penjelidik Usaha–Usaha Persiapan Kemerdekaan Indonesia (BPUPKI) “ Indoneziyani mustaqillikka tayyorlash nazorat qo‘mitasi” tashkil etishga ruxsat berdi.¹⁶ 67 vakildan iborat bu qo‘mitaga Sukarno rahbar etib belgilanadi. Sukarno o‘tgan yigirma yillik g‘oyaviy fikrlarini rivojlantirib, 5 ta prinsip asosida jamlaydi. 1945 yil 1 iyunda BPUPKI ning yig‘ilishida “Panchasila” tamoyilini e‘lon qiladi.¹⁷

1945 yil 7 avgust oyida BPUPKI , Panitia Penjelidek Kemerdekaan Indonesia (PPKI) (Indoneziya Mustaqilligini ishlab chiqish qo‘mitasi) qayta nomlanadi.

1945 yil 9 avgustda PPKI ning bosh yetakchilari(Sukarno, Hatta va Radjiman Wediodiningrat) Saigondan 100 km joylashgan Vietnamning Da Lat shahrida Yaponiyaning Janubiy Sharqiy kuchlar bosh qo‘mondoni feldmarshal Hisaichi Terauchi bilan uchrashadilar. Feldmarshal Terauchi Sukarnoga Indoneziyani mustaqillikka tayyorlashni Yaponlarning aralashuvisiz, hech qanday to‘siqlarsiz davom ettirish erkinligini beradi. 24 avgustda Indoneziyani mustaqilligini e‘lon qilishga vada beradi.

1945 yil 6 va 9 avgustda, kutilmaganda Hiroshima va Nagasaki shaharlariga atom bombasi portlaganligi va yaponlar Ikkinchi Jahon urushida mag‘lubiyatga uchrab, taslim bo‘lishga tayyorlanadi¹⁸. Keyingi kun , 15 avgustda Yaponlar Postdam Deklaratsiyasi shartlarini qabul qiladi va Ittifoqdosh davlatlarga so‘zsiz taslim bo‘ladi. Sukarnoga bu xabarni G‘arb radio eshittirishlaridan tinglagan PETA ning a‘zolari Chairul Saleh, Soekarni, Vikana va Yoshlar guruhi yetakchilari yetkazadi. Ular Sukarnoni Indoneziyani tezlik bilan mustaqilligini e‘lon qilishga undashadi, toki Ittifoqdoshlar Yaponiyadan chiqib ketmaslaridan oldin, tartibsizliklar kuchayganidan foydalanib qolishni maqsad qilishgan edilar. Vaziyat

¹⁶ Colin Brown. A short history of Indonesia. (Indoneziyaning qisqacha tarixi.) Australia.”Talisman”, 2011. 151-bet

¹⁷ Junaidi Rahman. Sejarah lahirnya Pancasila. Sebagai Ideologi & Dasar Negara. (Panchasilaning yaratilish tarixi . Davlatning asosi va mafkurasi sifatida.) Jakarta. 2011. 2-bet

¹⁸ Colin Brown. A short history of Indonesia. (Indoneziyaning qisqacha tarixi.) Australia.”Talisman” 2011. 154- bet

keskin o'zgarganligi sabali, Sukarno buni keyinga suradi. U Yaponlarning dushmanlik ruhida qaytishidan, qon tokilishidan xavfsiradi.

1945 yil 16 avgustning erta tongida uch yosh yetakchi Sukarnoning qarorsizligidan sabri chidamay uni uyidan o'g'irlab PETA ning qarorgohi joylashgan Rengasdengkodagi kichik bir uyga olib kelishadi. Ular Sukarnoni mustaqillikni e'lon qilishga ko'ndirishadi.¹⁹

1945 yil 17 avgust ertalab, Sukarno Pegangsaan Timur ko'chasida joylashgan uyiga qaytadi. Ertalabdan PETA va Yoshlar guruhi a'zolari tomonidan mustaqillikni rasmiy e'lon qilish munosabati bilan aholiga varaqalar tarqatiladi. Axiyri soat 10 :00 da Sukarno besh yuzta Indonez aholisi oldida Indoneziya Respublikasining mustaqilligini e'lon qiladi. 18 avgustda PPKI Indoneziya Respublikasining yangi boshqaruv tuzilishini qabul qiladi. Yangi Respublika 8 viloyatlardan: Sumatra, Borneo, G'arbiy Java, Markaziy Java, Sharqiy Java, Sulavesi, Maluku va Kichik Sundadan iborat edi. Sukarno "gotong royong" ("o'zaro yordam") shiori ostida birlashishga chaqiradi. Indoneziya parlamenti konstitutsiya qabul qiladi, lekin baribir boshqaruvni idora etib bo'lmadi. Bunga turli xil qarama – qarshi ijtimoiy, siyosiy, diniy va etnez fraksiya o'rtasidagi ziddiyatlar sabab bo'ladi.

Mustaqillik rasmiy e'lon qilingandan so'ng bu yangilik radio, gazetalar, varaqalar orqali tarqatiladi. Yapon askarlari yangilikni to'xtatishga urinishadi, ammo uddalay olishmaydi. 1945 yil 19 sentabrda Sukarno Jakartaning Ikada maydonida (hozirgi mustaqillik maydoni) bir million aholi o'rtasida Mustaqillikning bir oyligi bayramini nishonlaydi.²⁰ Java va Sumatra orollarida Respublika hokimiyati o'rnatiladi. Ayni paytda Yevropaliklar, Xitoyliklar, Xristianlar va mahalliy aristokratlar bir so'z bilan aytganda Indoneziyaning mustaqilligiga qarshi kuchlar tomonidan harakatlar boshlanadi. Eng jiddiy to'qnashuvlar Aceh va Shimoliy Sumatradagi ijtimoiy revolutsiyalardir. Aceh va Malayning ko'plab aristokratlari islomiy guruh tomonidan o'ldiriladi. Shimoliy

¹⁹ O'sha bet

²⁰ Colin Brown. A short history of Indonesia. (Indoneziyaning qisqacha tarixi.) Australia. "Talisman" 2011.161- bet

Sumatrada esa kommunist yetakchilari o'ldirila boshlanadi. Java orolining markaziy qismida ham Yevropaliklar, Xitoyliklar, Xristianlar va mahalliy aristokratlar olamon tomonidan o'ldiriladi. Bu qonli to'qnashuvlar 1945 yil oxiri va 1946 yilning boshlariga qadar davom etadi. Respublikaning olib borgan kuchli siyosati tufayli tugatiladi.

Sukarno hokimiyat tepasiga kelganidan so'ng birinchi navbatda milliy armiya tuzishdan boshladi. Hududga adolatli nazorat o'rnatish uchun talabga javob beradigan armiya yaratish muhim edi. Bu armiya Yapon bosqinchiligi davrida tuzilgan PETA va Heiho kabi militsiya guruhlaridan tashkil etildi. Shu bilan bir qatorda 1945 yil 5 oktabr oyida Tentara Keamanan Rakyat (TKR) "Xalq Xavfsizlik Armiyasi" tuziladi²¹. TKR Yaponiya askarlarini qurollarini musodara qilib qayta qurollanadi. Java va Sumatradagi o'zgarishlar sababli AQSH General Douglas Mak Artur boshchiligida Tinch okeanining janubi-g'arbiy hududlariga hukmronlikni qo'lga olishni boshlaydi. Lord Louis Mountbotten boshchiligidagi Britaniya kuchlari Janubi-Sharqiy Osiyo hududiga da'vo qiladi.

Yaponiya o'z armiyasini olib chiqishga ulgurmasidan, 1945 yil sentabrning oxirlarida Ittifoqdoshlarning askarlari Jakartaga yetib kelishadi. Oktabr oyiga kelib Britaniya kuchlari Indoneziyaning yirik shaharlarini egallashni boshlaydi. Britaniyaning 23-dviziya²²sining qo'mondoni General-Leytenant Sir Filip Kristinson Jakartadagi sobiq Niderland general-gubernatorligining saroyini qarorgoh sifatida belgilaydi. Angliya qo'shinlari general-leytendant Kristinson boshchiligida mamlakat markazi Jakartaga qo'shin tushirdi. Ingliz qo'shinlari shaharga tushirilganda, Jakarta binolarining peshtoqdariga qizil va oq rangli Indoneziya bayrog'i, ko'chalarda yapon qurollari bilan qurollangan xalq militsiyasi qo'riqchilari har qadamda uchray boshladi. Ingliz generali Indoneziyani mustaqil davlat sifatida tan olishdan boshqa iloj topolmagan. Ammo general bir bahonani aytishga ulgurgan edi. Yaponlarni qurolsizlantirishga Indoneziyaliklarga yordamga kelganini ilova qildi. Indoneziya manbalarida aytilishicha, bunga nisbatan, Sukarno, agar inglizlar bunday maqsad

²¹ O'sha asar. 163-bet.

bilan kelishgan bo'lsa, xalq ularga xalaqit bermaydi, - deb aytgan. Inglizlar bilan G'arb davlatlari jurnalistlari ham birga kelishgan edi. Ularning Indoneziya Prezidenti bilan uchrashishi va undan intervyu olishni maqsad qilib kelgani aniq bo'ldi. Sukarno ko'pgina xorijiy jurnalistlarga yaponlar bilan do'stona aloqada ekanligini aytgan. Jurnalistlar uni bu masalada ayblashga ham urinib ko'rdilar. Aslida esa Sukarno ko'p va behuda qon to'kilmaslik uchun qulay paytni kutgan bo'lib, bu haqda keyinchalik o'z xalqiga aytgan fikrlari matbuot saxifalaridan ma'lum. Angliya harbiy kuchlari ko'p o'tmay, Indoneziyadan ketishni emas, balki mamlakatning qonuniy hukumatini, ya'ni Niderlandiya o'z koloniyasini yana qo'lga olishiga kelguncha qolishini uqtirib, Sukarno hukumatini tan olmasligini aytdi.²² Oktyabr oyining boshida Jakartada Gollandiya davlat bayrog'i ko'tarildi. Birin-ketin Gollandiya harbiylari inglizlarga e'tibor bermay, yana o'zlarining oldingi makonlarini egallab, hukmronliklarini boshlab yubordilar. Mamlakatda xalq noroziligi boshlandi, politsiya indonezionaliklarni qamoqqa ola boshladi. Bu bosqinni to'xtatish va mustaqillikni saqlab qolish uchun kurashishi kerak bo'lgan vaqt kelgan edi.

Respublikaning qudratini Niderlandiya va Britaniya kuchlari bilan taqqoslab bo'lmas edi. Shunday bo'lsada, Sukarno yangi strategiya ishlab chiqadi. Unga ko'ra Indoneziyani Xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinishi zarur edi.

Sukarno parlamental tizim shakllantirdi Bosh vazir hukumatning kunlik ishlarini nazorat qilishi belgilanadi, Sukarno prezident sifatida davlatning eng yuqori lavozimiga o'tiradi. Bosh vazir va vazirlar mahkamasi Indoneziya Markaziy Milliy Qo'mitasi oldida javobgar bo'lishi belgilab qo'yildi. 1945 yil 14 noyabrda Sukarno bosh vazir etib Sulton Shahrirni tayinlaydi. U Yevropada ta'lim olgan va Yapon bosqinchi yetakchilari bilan hech qanday aloqasi yo'q edi.

Xatarli vaziyat, Niderland askarlari va boshqaruvchilari Niderlandiya Hindistoni Fuqaro Boshqaruvi nomi ostida Britaniyaning himoyasi bilan Indoneziyaga qayta hujum boshlaydi. Ularga Hubertus Johannes van Mook boshchilik qiladi. Niderlandlar Indoneziya fuqarolari va Respublika militsiyasiga

²²Namozov N. Sukarno va O'zbekiston. – T.; "Fan", 2004. 43-bet

g'azab bilan o'q uza boshlaydi. Natijada, mustaqillik talab qilgan ko'plab olamon guruhlar otilib chiqib Britaniya va Niderlandiya askarlariga qarshi qurollanadi. 1945 yil 10 noyabrda Surabaya shahri yaqinida Britaniyaning 49-piyoda jangchilari va Indoneziya aholisi o'rtasida to'qnashuv bo'ladi. Britaniya havo va dengiz kuchlari orqali shaharni bombardimon qiladi. Minglab Indoneziyaliklar halok bo'lishadi, Britaniya esa 300 ga yaqin askarini yo'qotadi. Bosh vazir Shahrirga nisbatan Niderland bosqinchilari suiqasd qilishga urinishadi. Ammo ko'zlangan maqsadlariga erisha olmaydilar. Yuqoridagi holatlar sababli Sukarno va uning hokimiyati 1946 yil 4 yanvarda xavfsizlik yuzasidan bexatar Yogyakarta shahriga ketishga majbur bo'lishadi. Respublika hokimiyati Sulton Hamengkubuvono IX ning to'liq yordami va himoyasida bo'lishadi. Yogyakarta 1949 yilning oxirigacha Indoneziya Respublikasining poytaxt vazifasini o'taydi. Bosh vazir Shahrir Jakartaga Britaniya bilan muzokaralar olib borish uchun qoladi.

1945 yilning oxiri va 1946 yil boshlaridagi janglarda Java va Sumatra orolining yirik port shaharlari Britaniya nazoratidan ketadi. Yapon bosqinchiligi davrida tashqi orollar (Java va Sumatradan tashqari) uncha rivojlanmasdan qolgan edi. Avstraliyalik va Niderland askarlari bu orollarni qiyinchiliksiz egallashadi. Faqat Bali orolida Gusti Ngurah Rai, Janubiy Sulavesi va Janubiy Kalimantanning Hulu Sungai hududida qarshilikka duch kelishadi. Indoneziya Respublikasi boshqaruvida faqat Java va Sumatraning qirg'oq shaharlari qolgan edi. 1946 yil noyabr oyida Britaniya qo'shinlari mamlakatdan chiqariladi. Buning o'rniga 150.000 Niderland askarlari o'rnashadi. Ayni vaqtda Niderlandlar va Indonezlar o'rtasida Linggachati shartnomasi imzolanadi. Unga ko'ra Niderlandiya Java, Sumatra va Madura orollaridan iborat Indoneziya Respublikasini tan oladi. Indoneziya esa Niderlandiya Birlashgan Qirolligi bilan hamdo'stlik sulhini tuzadi. Respublikachilarning tuzgan bu sulh shartnomasi turli xil fraksiyalarni noroziligiga sabab bo'ladi. Kommunistlar siyosiy arbobi Adam Malik boshchiligida Persatuan Perjuanga (PP) "qiyinchilikning birligi" tuziladi. PP "Minimum Program" dasturini taklif etadi. Unga ko'ra barcha chet el mulklari natsionalizatsiya etilishi va bosqinchi mamlakatlar askarlari bilan tuzilgan muzokaralar bekor qilinishi va

mamlakatdan chiqarib yuborilishi talab qilingan edi. 1946 yil 4 iyulda Niderlandlar bilan muzokaralar olib borish maqsadida Yogyakartaga yuborilgan bosh vazir Shahrir kommunistlar tomonidan o'g'irlab ketiladi. Sukarno General Sudirman boshchiligida qurolli qo'shin yuborib, Shahrirni ozod qiladi, Adam Malik va PP ning boshqa yetakchilarini hibsga oladi. Sukarno boshchiligida KNIP (Indoneziya Markaziy Milliy Qo'mitasi) Linggachati shartnomasini ma'qullamaslikni ko'rib chiqadi. KNIP ning ko'plab a'zolari shartnomani ma'qullashadi. Xulosa shu bo'ladiki, 1947 yil martida bu shartnoma imzolanadi.²³

1947 yil 21 iyulda Linggachati bitimi Niderlandlar tomonidan buziladi. Respublika boshqaruvida bo'lgan hududlarga bosqinchilik urushlarini boshlaydi. Yangidan tashkil etilgan TNI harbiy harakatlarga yetarlicha qarshilik ko'rsatadi. Niderlandiyaning tajovuzkorona harakati xalqaro hamjamiyatning e'tiborini tortadi. 1947 yil avgust oyida Niderlandlarning bosqinchiligi Xalqaro kuchlarning ta'siri tufayli to'xtatiladi. Shahrir bosh vazirlikni Amir Sharifuddinga tashlab, Indoneziya muammosini hal etish uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) joylashgan Nyu York shahriga uchadi. BMTning Xavfsizlik Kengashi zudlik bilan o't ochishni to'xtatish haqida qaror qabul qiladi va uni nazorat qilish uchun Good Offices Committee (Yaxshi Muassasalar Qo'mitasi) tuzadi. GOC shtabi Jakarta shahri etib belgilanib, Avstraliya (Richard Kirby boshchiligida, Indoneziyaliklar tanlashgan), Belgiya (Paul van Zeeland, Niderlandiyaliklar tanlashgan) va AQSH (Frank Porter Graham boshchiligida, neytral) delegatlaridan tarkib topgan edi.²⁴

Respublika kuchli Niderland harbiylari tomonidan xavf ostida qoladi. Niderlaniya askarlari tomonidan G'arbiy Java va Markaziy Javaning sharqiy qirg'oqlari va Sharqiy Java, Sumatraning asosiy ishlab chiqaruvchi hududlari egallangan edi. Bunga qo'shimcha ravishda Niderlandiya dengiz floti Respublika hududiga keladigan oziq- ovqat, meditsina va qurol-yaroq ta'minotini to'sib qo'ygan edi. Natijada 1948 yil 18 yanvarda bosh vazir Amir Sharifuddin Renville

²³ Colin Brown. A short history of Indonesia. (Indoneziyaning qisqacha tarixi.) Australia."Talisman" 2011. 166- bet

²⁴ O'sha bet

shartnomasini imzolashga majbur bo'ldi²⁵. Unga ko'ra Niderland askarlari egallagan hududlardan Respublika kuchlarining chekinishi va o't ochishni to'xtatish shartlari mavjud edi. Niderlandiya Indoneziyaga "qo'g'irchoq davlat" tuza boshladi. Samarasiz Renville shartnomasining imzolanishi bilan Respublika siyosiy tuzilishi beqarorlashadi, Niderlandlar bosib olgan G'arbiy Javada Sekarmaji Maridjon Kartosuvirjo boshchiligida Darul Islam partizanlar harakati boshlanadi. Bitimni imzolagan bosh vazir Amir Sharifuddin iste'foga chiqadi va o'rniga Mohammad Hatta keladi. So'l siyosiy oqim, Indoneziya Kommunistik Partiyasi, Musso boshchiligida Madiunda g'alayon ko'tarishadi. 1948 yil 18 setabrda boshlangan Sharqiy Javadagi qonli to'qnashuvlar oktabrning oxirigacha davom etadi. Kommunistlar mag'lubiyatga uchrab, Musso otib o'ldiriladi²⁶. 1948 yil 19 dekabrda kommunistlar g'alayoni tufayli Respublika hokimiyatining kuchsizlanganligidan foydalangan Niderlandlar ikkinchi Niderland operatsiyasini boshlaydi. Ularning maqsadi Indoneziya Respublikasini tugatib, yana mustamlaka davlatga aylantirish edi. Bosqinchilar Respublika poytaxti Yogyakarta shahrini havo orqali bombardimon qilishdi. Sukarno General Sudirman boshchiligidagi qurollangan kuchlarga va partizan kuchlarga shahar chetiga chekinishni buyuradi. Sukarno, Shahrir, Hatta va boshqa yetakchilar Niderlandlar qo'liga asir tushadi. Hukumatni saqlab qolish maqsadida Sukarno Sharifuddinga telegramma yuboradi. Unga Indoneziya Respublikasi Favqulodda Hukumatini boshqarish vakolati beriladi. Bu hukumat Sumatra orolining g'arbida egallanmagan hududlarni boshqarib turadi. Ikkinchi Niderland tajovuzi Xalqaro qonunlarni qo'pol buzganligi sababli, AQSH Niderlandiyaga agar bosqinchilik urushini to'xtatmasa Marshall Yordam fondini to'xtatishni bildiradi. TNI Niderlandlarga qarshi keng partizanlik harakatini davom ettiradi. 1949 yil 1 martda Podpolkovnik Suharto Yogyakarta hujum boshlaydi. Natijada 1949 yil 7 mayda Roem van Roijen shartnomasi imzolanadi. Shartnomaga ko'ra Niderlandlar Respublika

²⁵ Colin Brown. A short history of Indonesia. (Indoneziyaning qisqacha tarixi.) Australia."Talisman" 2011. 167- bet

²⁶ O'sha asar. 168-bet

yetakchilarini ozod qilishi va 1949 yil iyulgacha Yogyakarta hududidan chiqib ketishi zarur edi²⁷.

1949 yil 27 dekabrda Niderlandiya qirolichasi Juliana Indoneziyaning to'la mustaqilligini tan oladi. Shu kuni Sukarno Yogyakarta dan Jakarta ga uchadi va general gubernatorlik saroyida zafarli nutq so'zlaydi. Bu joy Mustaqillik saroyi deb qayta nomlanadi.

O'z boshidan ko'pgina qiyinchiliklarni kechirgan, ichki va tashqi agressiv kuchlar bilan kurashgan mamlakat har holda o'z milliy mustaqilligini qo'lida ushlab qola oldi. Bunda esa Sukarno boshliq xalq farzandlarining hissasi cheksiz bo'ldi. 1950 yilga kelib Indoneziya jahon mamlakatlari bilan teng dunyo siyosati va iqtisodiga o'z milliy qiziqishi bilan qaraydigan bo'ldi. Indoneziyaning ko'p asrlar davomida yaqin qo'shni davlat bo'lgan Hindiston bilan aloqasi har ikkala mamlakat mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin yanada yangi ufqlarga ko'tarildi. Hindiston bosh vaziri J.Neru va Sukarno davlat boshliqlari sifatida bir-birlarining davlatlariga tashrif buyurganlar. 1950 yilda Indoneziya Sobiq SSSR bilan ham diplomatik aloqa o'rnatdi. Mamlakat iqtisodi sekinlik bilan o'sdi, qiyinchiliklarni yengishda katta kuch va mablag'lar sarf etildi. Asrlar mobaynida kolonizatorlar tomonidan talon-toroj qilingan Indoneziya xalq xo'jaligini yo'lga solish ishi kun tartibidagi birinchi vazifa qilib qo'yildi. Siyosiy partiyalarning o'zaro tortishuvi davlat harbiylarining ham noroziligiga sabab bo'lgan edi. Armiya 1952 yilning 17 oktabrida o'z shartlari yozilgan xatni topshirish uchun Sukarno bilan uchrashishga erishdi. Harbiylar bilan bir yarim soatlik suhbat davomida Sukarno siyosiy partiyalarning o'zaro tortishuvini qoraladi va bu sohada kerakli tadbirlar o'tkazishga va'da berdi. Harbiylar Sukarnodan parlamentni tarqatib yuborishni talab qildilar, unga mamlakatni armiya kuchi bilan boshqarishni maslahat berdilar. Bu xavfli yo'l bo'lgani uchun Sukarno harbiylarga bunday qilishning natijasi yomon bo'lishini tushuntirdi. Ochiq qilib aytganda, harbiylarning talabi davlat to'ntarishi deb tushunilishi mumkin edi. Buni Sukarno siyosatchi sifatida sezib, uni rad etgan edi. Bunday qilganda, Sukarno

²⁷ Colin Brown. A short history of Indonesia. (Indoneziyaning qisqacha tarixi.) Australia."Talisman" 2011. 169- bet

Prezident sifatida armiyaga qaram bo‘lib qolardi. Ikkinchi tomondan, Sukarno armiyaning siyosatga aralashuviga qarshi edi. Oldinda umumiy xalq saylovlarai bo‘lishi kutilayotgan bo‘lib, Sukarno ana shu xalq saylovi natijasidan foydalanib, o‘z vakolatini yanada mustahkamlashga umidvor bo‘lgani tarixchilar tomonidan qayd etilgan. Siyosiy tortishuvlar yana bir Bosh vazir Vilojono iste’foga jo‘natdi, 1953 yilda Ali Sastroamidjoyo yana Bosh vazir sifatida o‘z kabinetini tuzdi. Mamlakatda parlament saylovi o‘tkazish yaqinlashib qolgan bo‘lib, partiyalar davlatda hukmronlikni qo‘lga olish uchun o‘zaro olishuvlarni kuchaytirgan edi. Sukarno bu saylovlarda g‘alaba qiladi. O‘zining “yetakchilik demokratiya” siyosatini olib boradi.

Mamlakatdagi 3 millionli kommunistlar partiyasi Prezident ishiga aralasha boshladi. 1965 yilda Sukarnoning ruxsati bilan kommunistik partiyaning 45 yillik yubileyi milliy bayram sifatida nishonlandi. Bundan so‘ng kompartiya birinchi kotibi Aydit Sukarnoga yaqinlik ruhida siyosat olib bora boshladi. Kommunistlar davlat xo‘jayinligini ko‘zlab ish yuritib kelishar edi²⁸.

Mamlakat uchun eng og‘ir yil - 1965 yilning 30 sentyabrida bo‘ldi. Kommunistlar o‘z hukmronligini o‘rnatish uchun davlat to‘ntarishi qilishga urinib ko‘rdilar. Ammo, armiya bu to‘ntarishni harbiy kuch bilan oldini oldi.

1965 yil 30 sentyabr kuni kechqurun Sukarno “Senayan” sport saroyida mitingda qatnashib, nutq so‘zladi. Ushbu saroyda mamlakatning texnik mutaxassisleri soveti bo‘lib, qatnashchilar asosan yoshlar edi. Xuddi ana shu paytda Jakartadan 40 kilometr uzoqda bo‘lgan Xalim uchuvchilar bazasida podpolkovnik Untung, general Suharto, Havo qo‘shinlari qo‘mondoni Omar Dan to‘plandilar. Ularning asosiy vazifasi davlat to‘ntarishini amalga oshirib hokimiyatni qo‘lga olish edi. To‘ntarishga aloqasi bo‘lgan generallardan biri Sukarnoga murojaat qilib qo‘lida yozilgan hujjatni imzolashni buyuradi, Sukarno buni rad etadi. “30 sentyabr harakati” podpolkovnik Untung tomonidan boshqarilgan bo‘lib, u “Generallar kengashi” isyonchilar to‘dasi deb e‘lon qilingan va kontrrevolyusion harakat deb baholandi. Bunga sabab Sukarnoning sog‘ligi yomonlashganligi deb yozilgan edi

²⁸ Namozov N. Sukarno va O‘zbekiston. – T.: “Fan”, 2004. 61-bet.

xabarda. Podpolkovnik Untung Prezidentni qo‘riqlash batalyoni komandiri bo‘lgani uchun, u o‘z xizmatini bajardi. Sukarnoning sog‘ligi yaxshi bo‘lib, u xavfsiz joyda” deb aytili xabarda.

1965 yilning 1 oktyabr kuni soat 13.00 da “Generallar kengashi” o‘zlariga qarashli radio orqali Prezident Sukarno sog‘ligi yaxshi, u mamlakatni boshqarishga qodir, deb xabar berdi. Ammo, oradan bir soat o‘tgach “30 sentyabr xarakati” qatnashchilari bosh vazir kabinetining ishdan olinganligini e‘lon qildilar. Revolyutsion kengash tuzilgan va ushbu to‘da fuqarolar va harbiylardan tashkil qilingan, to saylovlar o‘tkazilguncha hukmronlik ular qo‘liga o‘tganligi ham uqtirilgan edi. Shuningdek, ushbu kengash har kunlik o‘z faoliyatini prezidium orqali boshqarishi va unda hukmronlik vaqtli qo‘mondon va uning o‘rinbosarlari tomonidan olib borilishi aytilgan. Vaqtli qo‘mondon etib podpolkovnik Untung, o‘rinbosarlar sifatida brigada generali Suharto, podpolkovnik Xeru, polkovnik Sunardi va politsiya komissari Anvaslar tayinlangan. Ushbu to‘daning aniq bir dasturi yo‘q edi. O‘sha paytda Untung dekreti ular tuzgan xujjatlarda Sukarno kabineti ishdan olingan bo‘lsa ham, keyinchalik “revolyutsiyaning ulug‘ doxiysi” davlatni boshqarib turuvchi Prezidenti sifatida qoladi, deyilgan²⁹.

Mamlakatda ahvol og‘ir, 2 oktyabr kuni Jakartada harbiy holat e‘lon qilingan, tanklar harbiy harakatga tayyor, zenit qurilmalari tayyor qilib qo‘yildi. 3 oktyabr kuni Sukarno radio orqali nutq so‘zlab, o‘z dekretini o‘qib berdi. Ammo uning dekreti ko‘pchilik harbiylar tomonidan kerakli buyruq sifati qabul qilinmadi, bu harakatlar hukumatni qo‘lga olish uchun kurash boshlanganga o‘xshardi. “30 sentyabr harakati” kuni qurbonlari uchun mamlakat 3 oktabr kuni motam tutdi.

Sukarno “30 sentyabr harakati” siyosiy masala ekanligini va bu ishni o‘zi hal qilishini aytdi. 8 oktyabr kuni kommunistlar partiyasi mamlakatda ta‘qiqlandi. Indoneziyada kommunistlarga o‘rin qolmagan edi. Ammo, Sukarno Prezident sifatida kommunistlar borasida qattiqqo‘llik bilan qonun qabul qilishga ikkilanib qolgandi. Mamlakatda ushbu qiyin sharoitda muxolifat Prezidentga tazyiq

²⁹ Namozov N. Sukarno va O‘zbekiston .- T ;. “Fan”, 2004. 62-bet.

o'tkazishga o'tib, "30 sentyabr harakati"ni rasmiy ravishda tekshirilishini talab qila boshladi.

"Agar mamlakatda siyosiy tozalash boshlansa, - deb yozgan, Angaliyaning "Faynenshel tayms" gazetasi o'zining 1965 yil 10 noyabr sonida bosilgan maqolasida, - va bu tekshiruv oxiriga etkazilsa, kommunistlar, millatchilar va dindorlar partiyalari o'rtasidagi muvozanat o'zgaradi, Prezident obro'siga putur yetadi".

1965 yilning 4 dekabrda Sukarno muxolifat bosimi ostida favqulodda harbiy tribunal tuzish uchun dekret e'lon qildi. Sukarno haqida turli gaplar tarqala boshladi. Uning sog'ligi yomonlashganligi haqida xabarlar tarqaldi³⁰.

Sukarno dushmanlari uni almashtirish uchun vaktincha yordamchi tayinlab, keyinchalik uni chetlashtirish to'g'risida ochiq gapira boshladilar. 1965 yilning dekabrda general Nasutionni vitse-Prezidentlikka tavsiya etdilar. Gap masalani siyosiy hal qilishga kelib taqalgan edi. Xalq o'rtasida katta obro'ga ega bo'lgan Sukarnoga to'g'ridan-to'g'ri qarshi harakat qilish foydasiz bo'lmasligi uchun, uni asta-sekin obro'sini to'kishga bel bog'ladilar. Bunga sabab quyidagicha: Sukarnoning vatani bo'lmish Markaziy va Sharqiy Javada obro'si so'zsiz kuchli va ta'siri beqiyos bo'lgani holda, xalq unga darhol ko'makka kelishi tayinligini bilishardi.

1965 yil turli qarshiliklar bilan boshlandi. Talabalar ko'chalarga chiqib, tartibsizliklar uyushtirdilar. Bunday tartibsiazliklar uyushtirishga mamlakatdagi iqtisodiy tanglik yetarli sabab bo'la olardi. Oziq-ovqat kam, ishchilar va ijarachilarga maosh kechiktirib berilardi, milliy valyutaning kursi tushib, rupiya odamlar nazaridan qola boshladi. Yangi pul muomalaga chiqarildi. Baribir ahvol juda og'ir edi. Muxolifat qayta-qayta 1965 yil 30 sentabr voqealarini kun tartibiga qo'yib, bu qonli hodisadan Sukarno ham xabardor, ammo bu qonli fojeaning oldini olish uchun chora ko'rmaganini aytib, Prezidentni ayblashni davom ettirdi va xatto uni jazolashga ham urindi. Bu aybnomaga qarshi Sukarno nutq, so'zlab, mamlakatning iqtisodiy krizisi uchun general Nasution boshliq harbiylar javobgarligini va bu haqda o'sha

³⁰ Namozov N. Sukarno va O'zbekiston. – T.; "Fan", 2004. 63-bet.

paytda mudofaa vaziri bo‘lib turgan kishidan hisobot so‘ralishini aytdi. Ushbu tortishuv va bahslarda mamlakat siyosatdonlaridan hisoblangan Adam Malik Sukarnodan iste’foga chiqishini va bu bilan millat yakdilligini saqlash kerakligini talab etdi. Sukarno iste’foga chiqadi. Mamlakat prezidenti etib general- mayor Suharto saylanadi. Bu davlat to‘ntarilishi Indoneziyaga qimmatga tushadi, chunki mamlakatda diktatorlik rejimi o‘rnatiladi. Bu rejim toki 1998 yilga qadar davom etadi.

1.2 Sukarning hayoti va faoliyati.

Nama kelahiranku adalah Kusno. Aku memulai hidup ini sebagai anak yang penyakitan. Aku mendapat malaria, disenteri, semua penyakit dan setiap penyakit. Bapak menerangkan, “Namanya tidak cocok. Kita harus memberinya nama lain supaya tidak sakit-sakit lagi.” Bapak adalah seorang yang sangat gandrung pada Mahabharata, cerita klasik orang Hindu jaman dahulu kala. Aku belum mencapai masa pemuda ketika bapak menyampaikan kepadaku, “Kus, engkau akan kami beri nama Karna. Karna adalah salah seorang pahlawan terbesar dalam cerita Mahabharata.”³¹

Kusno tug‘ilganimdagi ismimdir. Men bu hayotda bolalikdan kasallikka chalinganman. Men bezgak, ichburug‘, barcha zararli va har bir kasallikka yo‘liqqanman. Otam tushuntirdi: “Isming ohangsiz. Biz senga boshqa ism qo‘yamiz, zora yana kasalliklarga chalinmasliging uchun.” Otam qadim zamonda Hindu odamlarining klassik hikoyasi, Mahabharataga juda ixlos qo‘ygan odam edi. Men hali o‘smirlikka qadam qo‘ymagan edim, Otam menga: “Kus, Biz senga Karna ismini beramiz. Karna Mahabharata hikoyasidagi eng buyuk pahlavonlardan biri.”.

Ketika dilahirkan di Blitar pada tanggal 6 juni 1901, Soekarno diberikan nama Koesno Sosrodihardjo oleh orangtuanya. Namun karena ia sering sakit maka ketika berumur lima tahun namanya diubah menjadi Soekarno oleh ayahnya. Nama

³¹ Bung Karno. Penyambung Lidah Rakyat Indonesia. (Indoneziya xalqining birlashishi) Jakarta. 1965. 12- bet.

tersebut diambil dari seorang panglima perang dalam kisah Bharata Yudha yaitu Karna. Nama “Karna” menjadi “Karno” karena dalam bahasa Jawa huruf “a” berubah menjadi “o” sedangkan awalan “su” memiliki arti “baik”³².

1901 yilning 6 iyunida dunyoga kelgan Sukarnoga ota-onasi Kusno Sosrodihardjo ismini qo’yadi. U tez-tez kasallikka chalinganligi uchun besh yoshga to’lganida otasi o’g’lini ismini Sukarno deb o’zgartiradi. Bu nom Karna ya’ni Bharata Yudha ismli urush qo’mondoni nomidan olingan. “Karna” ismi “Karno” bo’lib o’zgargan, chunki Java tilida “a” harfi “o” ga o’zgaradi, ismning boshidagi “su” so’zi “yaxshi”, “a’lo” degan ma’noni anglatadi.

Sukarno (Soekarno) Niderlandlardan mustaqillik uchun kurashda Indoneziyaning yetakchisi bo’lgan. Indonezlar Bung Karno yoki Pak Karno deb ham eslashadi. Ko’plab Java odamlari kabi, uning ham faqat bitta ismi bo’lgan. Diniy tomondan olganda, islom diniga sig’ingani uchun “Ahmad Sukarno” deb ham atashadi. Sukarno ismi Java tilida “Yaxshi Karna” degan ma’noni bildiradi.

Sukarnoning otasi Raden Sukemi Sosrodihardjoa boshlang’ich maktab o’qituvchisi bo’lgan. Uning onasining ismi Ida Ayu Ngoman Rai. Bali orolining Buleleng shahrida tug’ilgan va Oliy kasta Brahmanlikka kirgan. O’qish va yozishni Sukarno otasidan o’rgandi va otasi direktor bo’lgan besh yillik maktabga o’qishga kirdi. Bu maktabda Sukarno java va malay tillarini o’rgandi. Shuningdek, Sukarno otasi yordamida golland tilini o’rgandi. Otasi juda o’qimishli shaxs edi. O’g’lini ham o’qimishli shaxs bo’lishi uchun qo’lidan kelganicha harakat qiladi. Juda qattiqqo’llik bilan tarbiya beradi yoshligidanoq. Hatto arab tilini ham o’g’liga o’rgatadi. Hozirgi kunda arab tilini o’qishni, yozishni bilmagan Indonezni kam uchratamiz. Indoneziyada Arab tilini bilgan shaxs o’ta madaniyatli hisoblanadi. 1912 yilda mahalliy boshlang’ich maktabni tamomlagandan so’ng, u Mojokerto shahridagi Europeesche Lagere School (Niderland o’rta maktab)ga o’qishni davom ettiradi. Bu yerda golland tilini yanada chuqurroq o’rganadi³³. 1916 yilda o’rta maktabga kirish uchun Sukarno Surabaya shahriga o’qishga jo’nab ketdi. Surabaya dengiz va

³² Sejarah masa kecil Sukarno.(Sukarnoning bolalik davri.) <http://www.google.go.id> 2001. 1-bet

³³ Sejarah masa kecil Sukarno.(Sukarnoning bolalik davri.) <http://www.google.go.id> 2001. 1-bet.

sanoat korxonalari ishchilari shahri bo'lib, aholisi sal kam ikki yuz mingga yaqin edi. Sukarno bu yerda birinchi bor tramvay, katta xorij kemalarini ko'rdi³⁴.

Sukarno Surabayada otasining tanishi Chokroaminoto xonadonida manzil topdi. Said Umar Chokroaminoto "Sarekat islom" (Islom ittifoqi) degan tashkilot yo'l boshchilaridan biri bo'lib, o'z zamonasining o'qimishli kishilaridan edi. "Sarekat islom" 1911 yilda tashkil topgan bo'lib, Indoneziya xalqining o'z vaqtida katta ishonchiga sazovor bo'lgan ommaviy tashkilotlardan hisoblanardi. Indoneziya xalqi uchun bu tashkilot islom dinini ulug'lash, unga rioya qilish va milliy ozodlikka undovchi tashkilotlardan biri hisoblangan. Asosiy maqsad esa savodsiz bo'lgan dindorlarni birlashtirish va ertangi kunga ishonch uyg'otishdan iborat bo'lgan. Sukarno Chokroaminoto xonadonida ko'pgina ilg'or g'oyalarga ega bo'lgan kishilar bilan tanishib, o'qishdan bo'sh vaqtlarida ular bilan suhbatlashgan. Ushbu xonadonda, shaharda va Indoneziya davlatida bo'lib o'tgan yangiliklar ilk bor ma'lum bo'lardi. Said Umar Chokroaminoto voiz, siyosatchi, iqtisodni tushunadigan, xalq hurmat qiladigan kishi edi. 1917 yilga kelib "Sarekat islom" chaqiriqlari asosida mustaqillikka chorlovchi kishilar paydo bo'la boshladi. Ularga Sukarnodek sardor yoshlar yo'l boshlovchi bo'lgandi. Umuman olganda, Chokroaminoto xonadoni Sukarno uchun hayot maktabi bo'ldi. Bu yerda Sukarno ko'pgina taniqli siyosatchilar bilan uchrashdi. Indoneziya milliy-ozodlik harakati va davlati tarixida bu ulug' insonlar nomlarni abadiy abad saqlanib qolgan. Masalan, Agus Salim (1884-1954), Ki Xojar Devantoro (1889-1959), G. Sneflit Maring (1883-1942) golland sotsialisti A.Baars, gollandiyalik progressiv jamoat arbobi Semaun (1889-1956), Manavvar Musso (1898-1949), Tan Malaka, Alimi Pravirodirdjo kabilar shular jumlasidandir. Yuqorida nomlari keltirilgan bu ulug' zotlar Sukarno bilan turli vaqtda va turli manzillarda uchrashgan bo'lishiga qaramay, ular bilan tanishishiga S.U.Chokroaminoto sababchi bo'lgan edi³⁵.

Sukarno Surabayada qunt bilan o'qidi. Uning bo'sh vaqtlari maktab kutubxonasida o'tar edi. Bu yerda U Russo, Volter, Monteske, Jorj Vashington,

³⁴ Namozov N. Sukarno va O'zbekiston. – T.; "Fan", 2004. 6-bet.

³⁵ Soekarno online.Digital Library of the first President of Indonesia. <http://www.Soekarno.go.id.2-bet>

Avraam Linkoln kabi G'arb mualliflari yozgan asarlar bilan tanishdi.

Sukarno yashagan hovlidagi uy bekasi, ya'ni S.U.Chokroaminotoning rafiqasi to'satdan vafot etdi, gavjum xonadon bamisoli bo'm-bo'sh bo'lib qolgan edi. Ushbu xonadon taqdiriga sal bo'lsa-da yengillik kiritishni istagak Sukarno 1920 yilda Chokroaminotoning qizi Siti Utariga uylanadi. Chokroaminoto Sukarnoni mustaqil ravishda xalq oldida chiqish qilishga, bahslashishga safarbar etdi. "Serekat islom" harakati sardori Sukarnoda xalq yo'l boshchisiga xos qobiliyat borligini seza boshlagan edi.

Olim va yozuvchilarning yozishlaricha, Sukarno katta siyosatga 20 yoshidan qadam qo'ygan. Sukarno gapirganda yoki bahs qilganda unga ergashuvchilar va uni qo'llovchilar kun sayin ko'paya boshladi. 1921 yilda u Bandung shahriga kelib, texnologiya institutining quruvchi-injenerlik fakultetiga o'qishga kiradi.

U muhandistlik yo'nalishi bo'yicha ta'lim olib arxitekturaga qiziqish uyg'onadi. Bandungda o'qish davomida Sukarno o'zidan 13 yosh katta Inggit Garnasihni yoqtirib qoladi. Inggit Garnasih eri Sanusi bilan ajrashadi. 1923-yil mart oyida Sukarno ham xotini Siti Utari bilan ajrashib, Inggitga uylanadi.

XX asrning 20-yillarda Bandung Indoneziya shaharlari ichida milliy ozodlik harakatining markaziga aylangan edi. Bu paytda Sukarno Chipto Mangunkusumo g'oyalarini qo'llab-quvvatlagan bo'lib, uni siyosiy shogirdi darajasiga etishdi. Chipto Mangunkusumo vrach, o'tkir siyosatdon bo'lib, xalq, turmushini yaxshilash uchun qo'lidan kelgan hamma yordamini qilar edi. Bu paytga kelib "Serekat islom" tashkilotchilari o'rtasida o'zaro kelishmovchilik boshlanib, uning rahbarlari boshqa tashkilotlarga o'ta boshladilar. Chokroaminoto ham oldingi obro'sini yo'qota boshladi. Mitinglarda, bahslarda, xilma-xil ijtimoiy chiqishlarda milliy - ozodlik g'oyalarini ko'tarib chiqa boshlagan Sukarno, endi nafaqat xalq tomonidan, balki kolonial hukumat tomonidan ham kuzatuv ostiga olindi. 1926 yil 25 mayda Sukarnoga muhandistlik darajasi diplomi va "Ir" ya'ni "doktor" maqomi beriladi³⁶. Ko'pgina kitoblarda uni Ir Soekarno ismi bilan ham uchratish mumkin.

³⁶ Namozov N. Sukarno va O'zbekiston. – T.: "Fan", 2004. 8-bet.

Sukarno o'qish jarayonida matematika, fizika va mexanika fanlari va shuningdek, xorijiy tillar - nemis, fransuz va ingliz tillarini puxta o'rgandi.

Institutni tugatgan Sukarno matbuotda faol qatnashib, o'zining "Millatchilik, islom, marksizm" nomli maqolasini e'lon qildi. Bu maqola Sukarning siyosiy dasturi bo'lib, u butun umr bo'yi qiladigan ishini yigirma besh yoshida yuzaga chiqayotganligidan bashorat berar edi. "Biz bir narsadan kelib chikishimiz kerak" - degan edi Sukarno o'z maqolasida, - maqsadimiz Indoneziyani mustaqil davlat bo'lishiga erishtirishimiz, bu esa islom dini va millat maqsadini birlashtirishdan iborat". Bu uning milliy va diniy, shuningdek, dunyoviy orzusi edi. Maqola milliy ozodlik-harakati kurashini boshlaganlarga yordam tariqasida yozilgandek edi. Sukarno maqolasini o'qigan progressiv ruhdagi kishilar Indoneziya siyosiy dunyosida yangi sardor paydo bo'lganligini va matbuotda chop etilgan asar esa ozodlikka chaqiriq ekanligini angladilar.

Institutni tugatgach, Sukarnoga bir - necha davlat tashkilotlarida ishlash uchun taklifnomalar keldi. Ammo Sukarno kolonial hokimiyat bilan hamkorlik qilmaslik uchun davlat tashkilotlariga yaqinlashishni istamadi. U qat'iy tanishi Ki Xojar Devontoro ochgan milliy indonez maktabida tarix va matematikadan dars bera boshladi. Ammo tez orada bu ishdan ketishga majbur bo'ldi. Tarix darsida - indonez tarixi va xalq qahramonlarini ulug'lagani uchun uni ishdan bo'shatishadi.. Gap shundaki, u dars o'tayotgan paytda kolonial departament nozirlaridan biri tarix o'qituvchisi Sukarno darsini tahlil qilgani kirgan va yosh o'qituvchining Vatan haqidagi maqtovlarini eshitgan edi.

Shunday qilib, Sukarno katta siyosiy hayotga qadam qo'ydi. Sukarno hayotining asosiy maqsadi uch yuz yildan ko'proq Gollandiya mustamlakasi bo'lgan Indoneziyani mustakillikka olib chiqish edi. Partiyalar, turli to'dalar ko'p bo'lgani bilan Indoneziya Milliy partiyasidek katta obro'ga erishgan partiya yo'q edi. Orollar davlati bo'lgan Indoneziyada faqat Sukarno boshqargan milliy partiyagina mamlakatni mustaqillikka olib kela oldi. Indoneziya xalqi o'rtasida obro'si kun sayin o'sib borayotgan Sukarno voiz, xalq himoyachisi va vatanparvar sifatida qanchalik mashhur bo'lsa, mustamlakachilar uchun esa shunchalik xavfli bo'lib borayotgan

daxshatli dushman sanalar edi. Mustamlakachilar Sukarnoni jismoniy yo‘q qilishdan qo‘rqar edilar. Ammo indamasdan ham tura olmas edilar. Kolonial hukumat Sukarnoning har bir qadamini kuzata boshlaydi.

1926 yilning iyul oyida Institutdagi do‘sti Anvari bilan birgalikda Bandungda “Soekarno va Anvari” arxitektura firmasini tuzadi³⁷. Bu firma loyihalar ishlab chiqadi va uning qurilishiga rahbarlik qiladi. Sukarno ko‘plab imoratlarni qayta ta’mirlash loyihasini yaratgan. Masalan, mashhur Niderland arxitektori Charles Prosper Wolff Shumaxer yetakchilik qilgan Preanger Hotel inshoatini qayta ta’mirlash loyihasi diqqatga sazovordir. Bundan tashqari u ko‘plab shaxsiy uylarni loyihalashtirgan. Bandung shahridagi Gatot Subroto, Palasari, Devi Sartika ko‘chalaridagi uylar bugungi kungacha mavjud. Keyinroq Prezident bo‘lganidan so‘ng Sukarno arxitektura ishlari bo‘yicha bir qator loyihalar yaratadi. Masalan, Jakartadagi Tugu Proklamasi (Mustaqillikni tantanali e‘lon qilinishi yodgorligi), yonma-yon joylashgan Gedung Pola(Pola inshoati). Semarang shahridagi Tugu Muda (Yoshlik yodgorligi), Malang shahridagi Alun – Alun (shahar maydoni) yodgorligi, Surabaya shahridagi Tugu Pahlawan (Qahramon haykali) va Kalimantan orolining markaziy qismidagi Palangkarayaning yangi shahri shular jumlasidandir³⁸.

Tabiiyki, mustamlakachilik davrida ziyoli sinf kamchilikni tashkil qilgan. Sukarno ham shu sinf vakili edi. U bir qancha tillarda ravon muloqot qila olgan. Bolalikdagi Java tiliga qo‘shimcha u Sunda , Bali , Indonez va ayniqsa Niderland tillarida ravon gaplasha olgan. U shuningdek Nemis, Ingliz, Fransuz, Arab va Yapon tillarini ham o‘rgangan. Uning tezkor fikrlash qobiliyati va kuchli xotirasi unga yordam bergan bu tillarni o‘rganishga. Sukarnoning ilk millatparvarlik g‘oyalari Chokroaminotoning uyida yashagan vaqtlarida shakllana boshlaydi. Keyinchalik Bandungda talabalik yillarida g‘arb, kommunistlar va islom siyosiy-falsafasini chuqur o‘rganadi va o‘zining Indoneziya ijtimoiy erkinligi g‘oyasini yaratadi. U “marhaenizm” g‘oyasida Marhaen ismli oddiy Indonez shaxsini keltirib

³⁷ Soekarno online.Digital Library of the first President of Indonesia. <http://www.Soekarno.go.id> 2-bet.

³⁸ Soekarno online.Digital Library of the first President of Indonesia.[http:// www.Soekarno.go.id](http://www.Soekarno.go.id) 5-bet

o'tadi. U Bandungning janubiy hududida istiqomat qiladi. O'zining yerida o'zi uchun va oilasi uchun mehnat qiladi. Hech kimga qaram emas edi.

Institutda Sukarno Indoneziya talabalari uchun "O'qish klubi" tashkil qiladi. Bu klub Niderland talabalarining hukmronligiga qarshi tuzilgan edi. 1927 yil 4 iyulda Sukarno klubdagi do'stlari bilan Indoneziya Milliy Partiyasini (PNI) tuzadi. Unga yetakchilik qilish Sukarnoga topshiriladi. Partiyaning maqsadi Indoneziyani mustaqillikka erishtirish va imperializm va kapitalizmga qarshi turish edi. Chunki bu ikki tuzum Indoneziya odamlarini ahvolini yomonlashtirayotgan edi. Shuningdek partiya Indoneziyaning qadriyatlarini asrab qolish va Niderland Sharqiy Hindistonining qolgan shaharlarini birlashtirib yagona Indoneziya davlatini barpo qilishni ko'zlagan edi. Sukarno G'arb kuchlariga qarshi kurashda Yaponiyaning yordamiga umid qilardi. 1920 yil boshlarida Sarekat Islom (Islom Ligasi) bo'linib ketadi. 1926 yilda Indoneziya Kommunistik Partiyasining qo'zg'aloni muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Indoneziya Milliy Partiyasi (PNI)ning Niderland mustamlakachilik siyosiy tizimiga qarshi noroziligi kuchayadi. PNI ning ishlari Niderland hukumatini diqqatini tortadi. Sukarnoning nutqlari va namoyishlari mustamlakachilarning maxfiy militsiyasi tomonidan tez- tez tarqatiladi.

1929 yil 29 dekabrda Sukarno va PNIning boshqa asosiy yetakchilari hibsga olinadi. Sukarno Yogyakartaga safari chog'ida qo'lga olinadi va 1930 yilning avgust oyidan, dekabr oyigacha Bandung shahrida sud qilinadi. Sukarno mustamlakachilik va imperializmning adolatsizligini "Indonesia Menggugat!"

("Indoneziya ayblaydi!") asarida keltirib o'tadi. 1930 yil dekabrda U to'rt yil qamoq jazosiga hukm qilinadi va Bandung shahridagi Sukamiskin qamoqxonasiga yuboriladi. Uning kitobi keng miqyosda matbuotda bosib chiqariladi. Sukarnoga berilgan to'rt yillik jazo, ikki yilga va uni sudgacha hibsdan o'tirganini hisobga olish bilan qamoqdan ozod etish vaqti kelganligi nazarga olinib, Sukarno ozodlikka chiqarildi. 1931 yilning 31 dekabr kuni Gollandiya kolonial ma'muriyati o'ttiz yoshli Sukarnoni qamoq jazosidan ozod etdi. Sukarno xalq sardori sifatida hali hech kimga nasib etmagan obro'ga ham ega bo'lgan holda tanilgan edi.

Bu vaqtgacha Sukarno Indoneziya bo'ylab qahramon sifatida tanilib ulguradi. U hibsdaligida PNI tarqatib yuborilgan edi. Uning a'zolari ikki turli partiyalarga: Partai Indonesia (Partindo) Sukarnoning yordamchisi Sartono boshchiligida va Pendidikan Nasional Indonesia(PNI) (Indoneziya Milliy Ta'lim) Mohammad Hatta va Sultan Shahrir boshchiligida bo'linib ketadi. Keyinchalik 1932 yil 28 iyulda bu partiyalar birlashadi va unga Sukarno liderlik qiladi. Partindoning moliyaviy xarajatlarini qoplash maqsadida Sukarno arxitekturaga qaytadi va "Soekarno va Rooseno" byurosini ochadi. U shuningdek partiyaning "Fikiran Rakyat" ("Xalq fikri") gazetasi uchun maqolalar yozadi. U Java orolida tashkil etilgan boshqa millatparvar tashkilotlar bilan aloqa qila boshlaydi.

1933 yil o'rtalarida "Mencapai Indonesia Merdeka" ("Indoneziya mustaqillikka erishish") asarini nashrdan chiqaradi. 1933 yil 1 avgustda Jakartaga millatparvar Mohammad Husni Thamrin bilan uchrashuv chog'ida qo'lga olinadi. Uning siyosiy nutqlarini oldini olish maqsadida general – gubernator yunker Bonifacius Cornoles de Jonge tomonidan sudsiz surgun qilishga buyuriladi. 1934 yil boshlarida Sukarno oilasi bilan birgalikda Flores orolining Ende shaharchasiga surgun qilinadi. Flores orolida u bolalar teatri tashkil qiladi va kelajakda Frans Seda kabi siyosatchilarni tarbiyalaydi. Floresda bezgak kasalligi tufayli Niderland hukumati Sukarnoni 1938 yilning fevralida Sumatra orolining g'arbiy qirg'oqlarida joylashgan Bengkulu shaharchasiga ko'chiradi. Bengkuluda Sukarno Muhammadiyah tashkilotining mahalliy boshqaruvchisi Hassan Din bilan tanishadi. Sukarno Muhammadiyah mahalliy maktabida Islom dinidan dars bera boshlaydi. U o'zining 15 yashar o'quvchisi Hassan Dinning qizi Fatmavatini yoqtirib qoladi. Bu vaqtga kelib Sukarno Inggit bilan ajrashadi va 1943 yil Fatmavati bilan nikohdan o'tadi. Ular Pegangsaan Timur ko'chasi 56 - uyda istiqomat qilishadi. Bu uy Niderlandlardan musodara qilinib, Yaponlar tomonidan Sukarnoga sovg'a tariqasida berilgan edi. Keyinchalik 1945 yil xuddi mana shu uy yonida Sukarno Indoneziyaning mustaqilligini rasmiy e'lon qiladi. So'ngra Sukarno rafikasi Fatmavati qizil va oq matodan tikkan davlat bayrog'ini ko'taradi.

Xalq shoiri va bastakori Supratman ijod etgan va keyin davlat madhiyasi deb qabul qilingan “Indonesia raya” (“Ulug‘ Indoneziya”)ni ijro etadilar.

1964 yilda amerikalik jurnalist Sindi Adams Sukarno bilan bo‘lgan suhbatlarini ingliz tilida “Tarjimai xolim” nomi bilan chop ettirdi. Bu kitob Sukarno haqidagi birinchi yirik asar edi. Bu kitobda Sukarnoning katta davlat tashkilotchisi va xalq yo‘lboshchisi ekanligi ta’riflangan.³⁹

Sukarno kitobni aytib turgan va amerikalik jurnalist uni qog‘ozga tushirgan. Bu kitob yevropaliklarga Indoneziya Prezidenti haqida keng ma’lumot bergan birinchi asar hisoblangan. “Tarjimai xolim”da Sukarno hayotining eng qiziq va nozik tomonlari ko‘rsatilgan. Sukarno keyinchalik bu kitobni indonez tiliga tarjima qilinishini istagan. 1965 yilda S.Adamsning “Mening do‘stim diktator” nomi bilan ikkinchi kitobi bosmadan chiqdi. Ushbu kitob haqida Prezident Sukarno shunday degan edi: “Mayli mening portretim qanday berilgan bo‘lsa shundayligicha qolsin. Men ham insonman, xatosiz insonning o‘zi yo‘q. Mayli o‘quvchilar mening hayotimni qanday bo‘lgan bo‘lsa shundayligicha o‘qib, bilsinlar. Tarixning o‘zi unga baho beradi”.⁴⁰

Sukarno “Tarjimai xolim” kitobining so‘z boshida: “Menga juda ko‘p savol berishadi, - degan edi, -Prezident, Siz diktatormi yoki kommunistmisiz, nima uchun Indoneziyada matbuot erkinligi yo‘q? Xalq qashshoq yashab turgan paytda, nima uchun ko‘pgina universal magazinlar qurayapsiz va boshqalar. Xuddi ana shu savollarga javob berish uchun men Sindi Adamsga o‘z tarjimai xolimni aytib turib yozdirdim”.

Sindi Adamsga aytib turib yozdirilgan asar har jihatdan yangi kitob bo‘lib, nafaqat Indoneziya, balki jahon adabiyoti va tarixida janr jihatidan ham, mavzu tomonidan ham hamda muallifning unda o‘ziga xos narsalarni birinchi bor keng o‘quvchilar ommasiga yetkazishida ham yangi mazmundagi kitob edi. Kitobda Sukarnoning portreti turli tomondan tasvirlangan bo‘lib, undan tarixiy, siyosiy,

³⁹ Namozov N. Sukarno va O‘zbekiston. – T.; “Fan”, 2004. 24-bet

⁴⁰ Kapitsa M, Maletin N. Sukarno. M. 280- bet

madaniy va Prezident hayotining shaxsiy tomonlari, uni bir necha bor uylanganligi, bolalari, haqida ham ma'lumot berilgandi.

1965 yilning aprelida chet el firmalari, kompaniyalari, konsernlari, tashkilotlari ustidan nazorat o'rnatish haqida dekret e'lon qilindi⁴¹. Mamlakatdagi va xorijiy mamlakatlar kompaniyalarining 90 foizi davlat nazorati ostiga olindi. Bu tadbir ham mamlakatda reaksiya kuchlar va ularning xorijdagi hamkasblarini Indoneziya Prezidentiga salbiy ko'z bilan qarashga olib keldi. Ish joylari kamayib ketdi. Xorijdan kelayotgan yordam esa juda ham past darajaga tushdi. 1965 yilda mamlakatdagi og'ir iqtisodiy va siyosiy sharoitlar sababchisi qilib Prezidentni ko'rsatadigan kuchlar Sukarnoga qarshi kurasha boshladilar. Ayniqsa, 1965 yilning 30 sentyabridagi voqealar Sukarnoga juda ham katta salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Sukarno 1968 yilning 21 martida iste'foga chiqish uchun ariza berdi⁴².

1970 yilning 21 iyun kuni Sukarno vafot etdi. Uning qabri Blitar shahrida bo'lib, hozirgi kunda ko'plab insonlar ziyorat qilgani borib turishadi.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Indoneziyaning XX asr birinchi yarmida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy hayotida beqarorlik hukm surgan deb aytish ayni muddaodir. Indonezlarning mustamlakachilikka qarshi milliy - ozodlik harakatlari avjiga chiqib, yetuk millatparvarlar yetishib chiqdi. Bularga Sukarno, Muhammad Hatta, Masyumi, Shahrir, Tan Malaka, Mohammad Yamin, Abdul Hamid II va boshqalarni sanab o'tishimiz mumkin. Sukarno Niderlandiya mustamlakachiligiga qarshi keng ijtimoiy namoyishlar olib borganligi uchun bir marta qamoq jazosini o'taydi. Qamoqda ham u mustamlakachilarga qarshi harakatlarini to'xtatmaydi. "Indoneziya Menggugat!" asarini yazadi. Bu asarda imperializm va zamonaviy imperializm, o'rtasiagi farqlar ham keltirib o'tiladi. Sukarnoning fikriga ko'ra, eski imperialism bilan zamonaviy imperializmning farqi shundaki, shakl o'zgargan xolos, mazmum, ma'no, maqsad avvalgidek. Bu asari Sukarnoni tez fursat ichida

⁴¹ N.N.Namozov. Sukarno va O'zbekiston. Toshkent. "Fan" 2004. 24-bet

⁴² Soekarno online. Digital Library of the first President of Indonesia. www.Soekarno.go.id. 9-bet

mashhur qildi. Butun Indoneziyaga uning obro'si oshib ketdi, Bundan Niderland mustamlakachilari qo'rqib uni ozodlikka chiqarishga majbur bo'lishadi.

Keyinchalik Sukarno 1933-yil mart oyida "Mencapai Indoneziya Merdeka"

("Indoneziya mustaqillikka erishish") asarini yozadi. Bu asarda Indoneziyaning mustaqil emas ekanligini baralla aytib, Indoneziya xalqini ozodlik uchun kurashga chaqiradi. Asarning kirishida Tilak tomonidan aytilgan "Hanya rakyat yang mau merdeka bisa merdeka"⁴³, (" Faqat xalq mustaqillikni xoxlasagina, mustaqillikni qo'lga kiritish mumkin"). Bu asari uchun Sukarnoga hech qanday sudsiz umrbod surgun jazosi tayinlanadi. Sukarno sakkiz yil Flores va Sumatra orolida surgundaligida bolalar teatrini tashkil etadi. Millatparvar Behbudiy aytganidek "Teatr – ibratxonadur". Keyinchalik Yaponiya mustamlakachiligi davrida Sukarno siyosiy hayotga qaytib , Indoneziya mustaqilligini qo'lga kiritishga yetakchilaridan biriga aylandi. Sukarno bu maqsadiga yetadi . Indoneziyani mustaqillikka erishtiradi. Buning uchun u bir insonga beriladigan qobiliyatlarning barchasidan unumli foydalanadi. Sukarnoning bu darajaga yetishida birinchi navbatda otasi Sukemining hissasi ulkan. Bundan tashqari unga millatparvarlikdan saboq bergan ustoz Chokroaminotoning xizmati kata bo'ldi. Keyinchalik Bandungda talabalik yillarida g'arb, kommunistlar va islom siyosiy- falsafasini chuqur o'rganadi va o'zining Indoneziya ijtimoiy erkinligi g'oyasini yaratadi.

⁴³ Soekarno. Mencapai Indonesia Merdeka. 1933. 3-bet.

II BOB. SUKARNONING IJTIMOIIY – FALSAFIY QARASHLARI

2.1 Sukarno jamiyat va uning taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omillar haqida

“Ingatlah! Belajar tanpa berpikir adalah tidak ada gunanya, sedangkan berpikir tanpa belajar sangat berbahaya!”⁴⁴

“Esda tuting! O'ylamasdan o'rganish foydasiz, ammo o'rganmasdan o'ylash juda dahshatli!

“learning without thinking is useless, but thinking without learning is very dangerous!”

Sukarnoning qarashlariga Natsionalizm, Islom va Marksizmning g'oyalari katta ta'sir ko'rsatadi. Sukarno “Nasakom”(Nasionalism, Agama, Kommunism) “Millatparvarlik, din va kommunizm” aralashmasidan yagona “Marhaenizm” ya'ni “Xaqlparvarlik” g'oyasini ilgari suradi va buni Indoneziya davlati siyosiy hayotiga tadbiq etadi.

“...in my political outlook, I'm nationalist! in my social outlook, I'm socialist! in my religious outlook, I'm completely theist! that I am! I'm not a communist, not at all satellite of any other "-ism" in the world!! I'm just pro-Indonesia... I'll fight and work and sacrifice myself for this Indonesian people, this Indonesian fatherland of mine!!...”⁴⁵

“...siyosiy nuqtai nazardan qaraganda, Men natsionalistman! Ijtimoiy nuqtai nazardan qaraganda, Men sotsialistman. Diniy nuqtai nazardan qaraganda, Men butunlay Teistman. Men kommunist emasman va dunyodagi yana bir boshqa “izm”ga o'xshash narsaga aloqam yo'q! Men shunchaki Indoneziyalikman. Men

⁴⁴ Pidato Sukarno hari Merdeka tahun 1961.(Sukarnoning 1961-yil Mustaqillik kunida so'zlagan nutqidan.

⁴⁵ Soekarno quotes, when interviewed by BBC News, October 1957. (Sukarno sitatalari. BBC Yangiliklari tomonidan olingan suhbat. 1957-yil oktabr.)

Indoneziya xalqi uchun kurashaman, ishlayman va jonimni fido qilaman, shu mening ota makonim Indoneziyaga.”

Sharq xalqlari hayotida haqiqatan ham tarixiy davrda Osiyo va Afrika mamlakatlaridagi 29 davlatning birinchi konferensiyasi chaqirildi. Konferensiyaning bosh siyosiy vazifasi - barcha Osiyo va Afrika xalqlarining kuchini mustamlakachilikni tag-tomiri bilan yulib tashlashga yo'llash edi.

Indoneziya Respublikasining prezidenti Sukarno 1955 yil 18 aprelda konferensiyani ochish oldidan gapirgan kirish nutqida bu masalani hal qilishning juda zarurligini quyidagi iboralarda chiroyli ifodalab berdi: “ Bizga ko'p vaqt: mustamlakachilik yo'qoldi, deyilar. Bunday gaplarga aldanmaylik yoki xotirjam bo'lib qolmaylik. Men sizlarga aytamanki, mustamlakachilik hali yo'qolgan emas, Osiyo va Afrikaning juda katta yerlari hali ozod qilinmagan ekan, mustamlakachilik yo'qoldi, deb ayta olamizmi? Men sizlardan mustamlakachilikni sinfiy formada, biz indoneziyaliklar va bizning Osiyo va Afrikaning turli joylaridagi do'stlarimiz tushunib kelganidek tushunmaslikni so'rayman. Mustamlakachilik hozirgi zamon kiyimida ham harakat qiladi. Ular iqtisodiy, ruhiy va hatto jismoniy kontrol o'tkazish uchun mustamlaka mamlakatlarning territoriyasiga o'zlarining bir guruh kishilarini yuborish bilan o'z siyosatlarini davom ettiradilar. Mustamlakachilik ozod xalqlarning dushmanidir va u hamma sohada paydo bo'laverishi mumkin. U o'z o'ljasini yengillik bilan qo'ldan bermaydi. Kolonizm qayerda , qachon va qanday paydo bo'lmasin, u kulfat bo'lib, bitirilishga mahkumdir.”⁴⁶

Bandung konferensiyasi tinchlikni mustahkamlash, mustamlakachilikni qoralash va Afrika hamda Osiyo mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator masalalar yuzasidan muhim qarorlar qabul qildi. Bu qarorlar Sharq xalqlarining milliy ongi yanada oshishiga va ularning jahon miqyosiga chiqib olishlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Indoneziya xalqining milliy ozodlik kurashidagi g'alabasi, shuningdek Hindiston, Birma, Suriya, Misr,

⁴⁶ A. Azatyan. Indoneziya Respublikasi. "Qizil O'zbekiston", "Pravda Vostoka". Toshkent 1956. 28-bet O'sha kitob 30-bet.

Sudan, Jazoir, Marokash xalqlarining g'alabasi imperializmning mustamlakachilik sistemasi yemirilishi kuchayotganligini ko'rsatuvchi yaqqol dalildir. Indoneziyaning Bandung shahriga chaqirilgan bu konferensiya Sukarnoning oqilona ishi bo'ldi. Aynan shu konferensiya Sharq xalqlarining nufuzini oshirib yubordi.

“Terlebih dahulu saya mengucapkan selamat dengan Konferensi Besar GMNI ini. Dengan gembira saya membaca, bahwa asas tujuan GMNI adalah Marhaenisme. Apa sebab saya gembira?

Tidak lain dan tidak bukan, karena lebih dari 30 tahun yang lalu saya juga pernah memimpin suatu gerakan rakyat -suatu partai politik- yang dasarnya pun adalah Marhaenisme.

Bagi saya asas Marhaenisme adalah suatu asas yang paling cocok untuk gerakan rakyat di Indonesia. Rumusannya adalah sebagai berikut: Marhaenisme adalah asas, yang menghendaki susunan masyarakat dan Negara yang didalam segala halnya menyelamatkan kaum Marhaen. Marhaenisme adalah cara perjuangan yang revolusioner sesuai dengan watak kaum Marhaen pada umumnya. Marhaenisme adalah dus asas dan cara perjuangan “tegelijk“, menuju kepada hilangnya kapitalisme, imperialisme dan kolonialisme. Secara positif, maka Marhaenisme saya namakan juga sosio-nasionalisme dan sosio-demokrasi; karena nasionalismenya kaum Marhaen adalah nasionalisme yang social bewust dan karena demokrasiya kaum Marhaen adalah demokrasi yang social bewust pula.

Dan siapakah yang saya namakan kaum Marhaen itu? Yang saya namakan Marhaen adalah setiap rakyat Indonesia yang melarat atau lebih tepat: yang telah dimelaratkan oleh setiap kapitalisme, imperialisme dan kolonialisme.

Kaum Marhaen ini terdiri dari tiga unsur: Pertama : Unsur kaum proletar Indonesia (buruh) Kedua : Unsur kaum tani melarat Indonesia, dan Ketiga : kaum melarat Indonesia yang lain-lain.

Dan siapakah yang saya maksud dengan kaum Marhaenis? Kaum Marhaenis adalah setiap pejuang dan setiap patriot Bangsa. Yang mengorganisir berjuta-juta kaum Marhaen itu, dan Yang bersama-sama dengan tenaga massa Marhaen itu

hendak menumbangkan sistem kapitalisme, imperialisme, kolonialisme, dan Yang bersama-sama dengan massa Marhaen itu membanting tulang untuk membangun Negara dan masyarakat, yang kuat, bahagia sentosa, adil dan makmur⁴⁷.

“Avvalo, GMNI katta konferensiyasi bilan qutlamoqchiman. Xursandchilik bilan GMNI asosiy maqsadi bo’lmish Marhaenizmni o’qimoqchiman. Nima sabab bo’ldi xursand bo’lishimga?

Boshqacha bo’lishi mumkin emas, chunki 30 yildan ko’proq vaqt oldin men siyosiy partiyada Marhaenizmni asos qilib xalq harakatini boshlagandim. Marhaenizm Indoneziyada xalq harakati uchun juda to’g’ri tamoyil edi mening fikrimcha. U shunday shakllangandi: Marhaenizm bu umumiy asos ya’ni jamiyat va davlat strukturasi talabi, ishchilar sinfini himoya qilish. Marhaenizm bu ichki muammolar ya’ni ishchilar sinfining tabiiy va umumiy revolutsiyasidir. Marhaenizm bu kapitalizm, imperialism va kolonializmni yo’qotish maqsadida asos qilib olingan. Dangkalini aytganda, Marhaenizmga ijtimoiy millatparvarlik va ijtimoiy demokratiya deb nom bergan bo’lardim; chunki ishchi sinfining millatparvarligi millatparvarlikdir, ijtimoiy onglilikdir, ishchilar sinfining demokratiyasi ham demokratiyadir, ijtimoiy onglilikdir.

Ishchi sinflari uch elementdan tashkil topgan: Birinchisi: Indoneziya proletar guruhi (ishchi)

Ikkinchisi: Indoneziya kambag’al ishchilar guruhi va uchinchisi: Indoneziyaning boshqa boshqa kambag’al sinflari. Va kimniki men Marhaenez jamoasiga nazarda tutyapman? Marhaenez guruhi bu har bir Xalq fidoiysi , vatanparvaridir”.

Ma’naviy yetakchilik: shaxsiy kamolot va tanazzulni sezish. Yetakchi bu jarayonlarda yangiliklar yaratuvchi yoki namuna bo’ladigan barcha yaxshi fazilatlarni mujassamlashtirgan insondir. Shuningdek insonlarni o’zining orqasidan ergashtirish, ularni boshqarish , farovon hayotga erishtirish va to’g’ri yo’lga boshlash qobiliyatiga ega bo’lishi zarur. Bundan tashqari yetakchilikda eng muhim

⁴⁷ Soekarno. Pidato pada Konferensi besar GMNI di Kaliurang. Jogjakarta.1959

narsa bu ular yetakchiligidan foydalanib odamlarga ziyon yetkazmasligi, haqorat qilmasligi maqsadga muvofiqdir.

Ma'naviy yetakchilik yetakchining yaxshi va yomon narsalarni ilg'ash qobiliyatiga ko'ra aniqlanadi. Yetakchi o'zining jamoasining fikrlarini ham eshitib, ularni eng yaxshisi tanlab olishi kerak. Agar uning qarori ko'p odamlarga yaxshi narsalar olib kelsa, bunday yetakchi jamiyat uchun juda zarur. Albatta yetakchining qarori ma'naviy foydaga qarama - qarshi bo'lmazligi kerak. Teodor Ruzvelt aytganidek "O'qitish insonga aql orqali beriladi, ma'naviy o'qimaslik jamiyatga xavf olib keladi". Men shuni aytmoqchimanki, ma'naviy yetakchi g'oyalarni ochiq ko'ngillik bilan boshqalar bilan baham ko'rishi boshqalarga ideal inson sifatida namoyon bo'lishi zarur.

Boshqaruv sohasida yetakchilik hali ham yuqori sinf elitaning qo'lida bo'lishi, ularning ustunligi yuqori bo'lishi maqsadga muvofiq emas. Kambag'al insonlar hukumatga yaqinlasholmasa, bu ma'naviy standartning va majburiyatning bulg'anishi, nazorat qonunining pasayganligidan dalolat beradi.

Mening fikrimcha, Sukarno ma'naviy yetakchi bo'lgan. Uning yetakchiligidan Indonesia mustaqillikka erishdi. Bundan tashqari "Panchasila"ni (Indonesia davlatining asosiy va rasmiy falsafiy rivojlanish fundamenti) tuzdi⁴⁸. Panchasila asosan beshta yetakchi g'oyalardan iborat:

1. Yetakchilik tezisi (Qudratli, qodir Xudoga ishonish)
2. Gumanizm yetakchiligi (Insonparvarlik tuyg'usi)
3. Demokratik yetakchilik
4. Birdamlik yetakchiligi
5. Ijtimoiy adolat yetakchiligi

Sukarno tomonidan murojaat qilingan bu yetakchilik usuli ma'naviy va axloqiy g'oyalar markaziy o'rinda turganligini ko'rishimiz mumkin.

Sukarno kuchli irodaga ega bo'lgan. Indonesia mustaqilligi uchun o'zini fido qila oladigan shaxs bo'lgan. Uning barcha qarorlari umumiy qiziqishlardan kelib

⁴⁸ Yonna Ayundria. Moral leadership: Personal improvement and sense of crisis.(Ma'naviy yetakchi: Shaxsiy kamolot va tanazzulni sezish) Indonesia. View blog 2013 2- bet.

chiqqan. Sukarnoning muvaffaqiyati shundaki, Xalqaro jamiyatda ham uning o'z hurmati bo'lgan. Masalan, Nefo (new emerging forces- yangi kuchlarning paydo bo'lishi), The Non-Aligned Movement (Qo'shilmaslik harakati), The Asian – African Summit (Osiyo –Afrika davlat rahbarlari uchrashuvi) va erkin tashqi siyosat olib borishi bunga dalil bo'la oladi. Bu yetakchilik usuli insonlarning qiziqishlari va milliy munosabatlarda o'ta sezgirlik bilan farqlanadi va mashhur milliy yetakchilik nomi bilan tanilgan. Demak siyosiy va iqtisodiy siyosat yetakchiligi milliy va umumiy qiziqishlar markaziy o'rinda turishi zarur.

Janob Sukarnoda yetakchilik sifatleri: o'ziga kuchli ishonch, to'liq joziba, to'liq tashabbuskorlik va yaratuvchanlik va boy va yangi g'oyalar, ularni amalga oshirish, kuchli notiqlik san'atiga ega ekanligi, o'zini orqasidan ergashtirish qobiliyati. Uning yetakchiligi shundaki, Uning buyuk maqsadi Indonesia davlatini mustaqillikka erishtirish bo'lgan va Sukarno buni amalga oshirdi.

“This is a good example of moral leadership that came from my own country, Indonesia. Soekarno was the proclamatior of Indonesian Independence and the first president of Indonesia. Without Soekarno's important efforts, Indonesia would be still colonized either by the Dutch or by the Japanese. It would be possible that we would not have felt what the meaning of freedom was. We would have been slaves for the Dutch or the Japanese. It would be impossible for us to have a free speech; to control all the natural resources that we had. Without Soekarno, we would not have lived as free people. Soekarno has sacrificed his own freedom to free his Nation's. That is why Soekarno was one of good example of moral leader.⁴⁹”

“Bu juda yaxshi namuna ma'naviy yetakchilikka, Mening yurtim, Indoneziyadan. Sukarno Indoneziyaning Mustaqilligini e'lon qilgan va uning birinchi prezidenti bo'lgan. Sukarnoning muhim urinishlarisiz, Indoneziya hali ham yo Niderlandlarga yo Yaponlarga mustamlaka bo'lar edi. Ozodlikning ma'nosini his qilmagan bo'lar edik. Niderlandlar va Yaponlarga qul bo'lib kelar

⁴⁹ Ayzha Rizvy Abigail Anggorodi. Moral leadership. (Ma'naviy yetakchi) Indonesia. View blog. 2013. 2-bet.

edik. Bizdagi mavjud tabiiy resurslar va soʻz erkinligi boʻlmagan boʻlardi. Sukarnosiz, ozod yashay olmasdik. Sukarno shaxsiy ozodligini millat ozodligi uchun fido qilgan. Shuning uchun Sukarno maʼnaviy yetakchilikning eng ajoyib namunasi biridir”.

“Tuan Punya Bom Atom, tapi Saya Punya Seni”

Adalah kebiasaan Presiden Amerika Selatan, John F. Kennedy menerima tamu-tamu negara di lantai atas Gedung Putih. Tapi protokol itu tidak berlaku bagi Sukarno, Presiden Republik Indonesia. Dan itu dinyatakan langsung kepada protokol Gedung Putih, “Kennedy mesti turun. Sambut saya di bawah. Kalau tidak, saya tidak akan datang.” Entah bagaimana si petugas protokol itu menyampaikannya ke Kennedy. Tetapi yang jelas, ketika Bung Karno datang ke Gedung Putih, Kennedy turun ke lantai bawah, dan menyambutnya dengan ramah. Setelah ritual pertemuan dua kepala Negara sekadarnya, barulah keduanya bersama-sama menaiki tangga ke atas, diiringi para staf kedua petinggi negara tadi. Bukan hanya itu. Bung Karno bahkan diberi kesempatan berpidato di Gabungan Kongres dan Senat Amerika Serikat. Ini sangat jarang terjadi⁵⁰.

“Janobda atom bombasi bor, ammo menda sanʼat bor”.

AQSH prezidenti Jon F. Kennedining davlat mehmonlarini Oq Uyning yuqori qavatida kutib olish odati bor edi. Lekin bu rasmiy tantanali marosim Indoneziya Respublikasi Prezidenti Sukarnoga maʼqul kelmadi. Oq Uy rasmiy maʼrosimi rahbariga aytadi: “Kennedi pastga tushsin. Javobim shu. Agar tushmasa, men ichkariga kirmayman.” Bung Karno Oq Uy ichkarisida Kennedining doʻstona chorlovini koʻrdi va ichkariga kiradi. Ikki davlat rahbarlari uchrashuv udumidan soʻng, ikkalasi birgalikda yuqoriga koʻtarilishadi, ikki davlatning yuqori teng xodimlaridek. Faqat shugina emas. Bung Karno AQSH Senati va Kongres qoʻshma majlisida nutq soʻzladi. Bu juda kam sodir boʻladi.”

Agar siz Bangkok shahriga sayohat yoki biror ish bilan borsangiz Madame Tussauds muzeyiga kirib oʻting. U yerda Sukarnoning mumdan qilingan haykaliga

⁵⁰ Amanda Isabella.Ir.Sukarno. Jakarta. 2001

duch kelasiz. Mumdan qilingan Sukarnoning haykali xuddi unga o'xshash va tirikdek tuyuladi. Madame Tussauds muzeyidagi bu haykal mustaqillik e'lon qilgan shaxs, Indoneziya millati otasi va jahon (xalqaro) maydonda muhim o'rin tutgan Indoneziya Respublikasining birinchi Prezidenti Sukarnoga bo'lgan chuqur hurmat va ehtirom ramzidir.

Indoneziya Prezidenti Bung Karnoning o'ziga xos kiyinish uslubi bo'lgan. Aynan shuning uchun ham u boshqalardan ajralib turgan. Indoneziyaning har bir millatining o'ziga xos kiyinish uslubi, milliy kiyimi mavjud. Bung Karno Java orolida tug'ilgan. Bu orolda juda ko'plab millatlar yashaydi. Masalan Achehning o'z kiyinish uslubi, Balining o'z kiyinish uslubi bor. Ular o'z udumlariga amal qilgan holda bu kiyimlarni kiyishadi. U o'z safdoshalari bilan to'plangan vaqtda oddiy xalqning bosh kiyimi "pici" ya'ni "qora beret" kiygan holda kelar edi. Bu hammaga ma'qul kelgan edi. Chunki "pici" eng kambag'allar kiyadigan qalpoq bo'lib, uni boy va xristianlar hech qachon kiyimagan edi. Pici hozirgi kunda oddiy indonez fuqarosidan to davlat Prezidenti kiyadigan bayram liboslaridan biriga aylangan⁵¹. Bundan tashqari Sukarno o'zi uchun oppoq kastyum kiyib yurishni ma'qul deb topdi. Haqiqatdan bu kiyim Sukarnoga juda mos, uning mavqeyini yanada oshirib yuboradi. Hech qaysi millat xafa bo'lmadi. Separatizmga yo'l qo'ymagan holda juda oqilona qaror qabul qiladi.

Sukarno hazrati inson sifatida nafakat Indoneziyada, balki butun dunyoga ma'lum bo'lgan davlat va jamoat arbobi bo'lib tanilgan kishi edi. Uning boshchiligida tuzilgan Indoneziya bugungi kunda dunyoda tanilgan mamlakatlardan biri bo'lib kelmoqda. Bunda Sukarnoning xizmati beqiyos bo'lgan.

Sukarno g'oyasi haqida gap borar ekan, Indoneziya davlati tarixini uning Prezidentlik faoliyatidan ajratib o'rganib bo'lmaydi, albatta. Agar Sukarnoning g'oyaviy merosi haqida gapirilganda, bu masalani davrlarga bo'lib o'rganilsa, unga yondoshish to'g'ri bo'ladi. Jumladan, bu davrlarni quyidagicha belgilash mumkin:⁵²

Birinchi davr – 20 yillardan 1945 yil 1 iyungacha, ya'ni Panchasilaning

⁵¹ N.N.Namozov. Sukarno va O'zbekiston. Toshkent. "Fan" 2004. 10-bet

⁵² N.N.Namozov. Sukarno va O'zbekiston. Toshkent. "Fan" 2004. 68-bet

tuziladigan davlatning siyosati sifatida qabul qilingan davri. Xuddi ana shu davrda mamlakatda milliy - ozodlik harakati boshlanib, soʻngra Indoneziya davlati dunyo siyosiy xaritasida paydo boʻlgan. Asosiy tayanch Sukarnoning marhaenizm taʼlimoti boʻlib, koʻp millatli xalq uni tushundi va qator partiyalar bu taʼlimotni qabul qilib, uning rahbarligida mustaqillikka erishishi uchun kurashdilar. Sukarno taʼlimoti asosida Indoneziyaning davlatchiligi, antikolonial, antiimperialistik xarakterdagi siyosiy va iqtisodiy yoʻnalishi taʼlimoti dunyoga keldi.

Sukarno siyosat maydoniga “Marhaenizm” degan atamani olib kirishga muvaffaq boʻldi va umrining oxirigacha bu atamani tilidan tushirmadi. “Marhaen” xalq degan maʼnoni bildirib, oddiy xalqni ulugʻlash edi⁵³.

Ikkinchi davr – 1945 - 1950 yillarda mustaqillik va milliy birlik boʻlib, bu davr Gollandiya kolonial mustamlakachiligidan abadiy qutulish davrlari boʻldi. Sukarno bu kurashda rahbar boʻlib, Indoneziyaning mustaqil davlat sifatida ozod qilinishiga jahon progressiv jamoatchiligini oyoqqa turgʻazib, mamlakatni dunyo xaritasiga kiritishga erishdi.

Uchinchi davr – 1950 - 1956 yillar Indoneziyaning davlat suverenitetini mustahkamlash, jahon mamlakatlari bilan aloqa oʻrnatish, mustaqil tashqi siyosat olib borish, iqtisodiy, madaniy aloqalarni rivojlantirish hisoblanadi. Bu paytda, Sukarno Prezident boʻlgan holda mamlakatda siyosiy va demokratik kuchlarni qoʻllab-quvvatladi. Ammo, 1950 yil Konstitutsiyasi uni baʼzi bir soxalarda chegaralagan boʻlsa ham, Sukarno, xalq oʻrtasidagi katta obroʻsiga ishongan holda Indoneziyada yangi mustaqil ruhdagi demokratik davlat oʻrnatdi. Mamlakatni dunyoga tanitdi.

Toʻrtinchi davr - 1956 -1965 yillar, milliy davlatchilikning “maʼlum yoʻnalishdagi demokratiya” yaʼni “yetakchi demokratiya”ning paydo boʻlishi davri “. Bu davrda Indoneziya Irianani gollandlar qoʻlidan qaytarib oldi. Shuningdek, u mamlakatda muxolifatning birlashib, Sukarno boshligiga qarshi kurashishi ham boshlanib, kommunistlar boshlagan 1965 yil 30 sentyabr voqealariga, keyinchalik,

⁵³ N.N.Namozov. Sukarno va Oʻzbekiston.Toshkent. “Fan” 2004. 10-bet

Sukarnoning iste'foga ketishga majbur bo'lganligini ko'rishimiz mumkin..

Xullas, yarim asrdan ko'proq vaqt o'tib, Indoneziya hayotining bugungi ravnaqiga nazar tashlansa, bu rivojda uning roli yanada ko'proq ko'zga tashlanadi.

Birinchidan, Indoneziyaning siyosiy, iqtisodiy, madaniy mustaqilligi bo'lib, barcha davlatlari bilan har taraflama teng aloqasi.

Ikkinchidan, Xalqaro Bandung konferensiyasini o'tkazish, BMTga a'zo qilinishi, harbiy bloklarga siyosati va hokazolar Sukarno siyosatining asosi bo'lgan.

Uchinchidan, Sukarno birinchilardan bo'lib, Xitoy Xalk Respublikasi, Hindiston, Misr Arab Respublikasi mamlakatlarini BMTga a'zo bo'lishlari masalasini ko'tarib ularni qo'llab-quvvatlagan jahon siyosatdonlaridan biri.

To'rtinchidan, Indoneziyada xalk xo'jaligi, maorifi, eksport va importi, xalq tabobati, umuman, hayotiy zaruratga kerakli tadbirlar uning botshchiligida amalga oshirildi. Kolonializmga birinchilardan bo'lib hujum uni yengib mustaqil davlat tuzgan ham Sukarno edi.

Uning jamoat arbobi sifatida mashhurligi nafakat u milliy – ozodlik harakati sardori, voizligi, xalq ruhini bilgan va turli insonlar bilan til topishib, ular qalbiga yo'l topganligida bo'lishi mumkin. Islom dinining hayotbaxshligini qalbdan his qilgan, Xudo oldida hammani bir xil bilgan Sukarno, insonni e'zozlagan sardor edi.

2.2 Sukarnoning “Panchasila” ta'limoti va uning Indoneziya ijtimoiy – ma'naviy rivojiga ta'siri.

Indoneziya hukumatining insonparvarlik ta'moyillari , inson huquqlari va erkinliklariga izchil rioya etishga bo'lgan harakatlari uning milliy falsafasi, Panchasilada, 1945 yilgi konstitutsiyasida, va uning milliy qonunlari va qoidalarida mujassamlashgan.

Indoneziyaning falsafiy asosi, Panchasila, “ Besh axloqiy me'yorlar” Indonezlarning hayoti va jamiyati, insonparvarlik g'oyalari bilan o'zaro bog'liq va ajralmasdir. Prezident Sukarno so'zlari bilan aytganda, "Panchasila jamiyat, millat va davlat hayotining yagona, asosiy tamoyili hisoblanadi.”

Inson huquqlari bilan bevosita bog‘liq tamoyillarning muhim ma'nosi.

“Yagona Oллоhga iymon keltirish” har bir Indoneziya fuqarosi, diniy mazhabi yoki ularning ishonchidan qat’iy nazar totuvlik va insoniyatning tinchligi yo‘lida bir-birining e’tiqodini hurmat qilishi kerak. Bu tamoyil barcha diniy bag‘rikenglik va erkinlikni o‘z ichiga oladi ya’ni hamma o‘zi tanlagan dinga e’tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmasligi huquqiga egadir.

“Adolatli va madaniyatli insonparvarlik”, asosiy individual inson huquq va erkinliklari bilan jamiyat va davlatga tegishli individual majburiyat o‘rtasida muvozanat, yaqinlikni bildiradi,“. Bu tamoyil jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlar adolatli va madaniyatli ma'naviyatga asoslangan bo‘lishi g‘oyasini ta'kidlaydi.

“Demokratiya” bu demokratiya yagona, oliy Oллоhga ishonish, adolatli axloq va madaniyatli insoniyat va butun xalq uchun ijtimoiy adolat maqsadi sari yo‘naltirilgan. Bu demokratiya Indoneziyaning o‘z an’anasi va ijtimoiy qadriyatlari hamohangligida, siyosiy tenglikgina emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tenglik imkonini beradi.

“Ijtimoiy adolat” adolatli va farovon jamiyatga erishishni , moddiy shuningdek ma’naviy tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Inson eksplutatsiyasining har qanday shakli taqiqlanadi. Bu tamoyil Indoneziyaliklarning barcha guruhlariga yashash va inson qadr-qimmatini himoya qilish uchun teng va adolatli imkoniyat , sharoit yaratib beradi.

Yuqoridagi ta'moyillar Sukarno tomonidan 1945 yil 1 iyunda ishlab chiqiladi. Bu ta'moyillarni Sukarno “Panchasila” ta'moyillari deb nomlaydi.

1945 yilgi Indoneziya Respublikasi Konstitutsiyasi Panchasilaga asoslangan, shuningdek Insonparvarlik dasturi va inson huquqlarining asosiy tamoyillarini ham o‘z ichiga oladi. Bu tamoyillar Indoneziya xalqining farovonligini ta'minlashga xizmat qilishi uchun bir qator milliy qonunlar va qoidalarga kiritildi. Bundan tashqari, 1945 yilgi Konstitutsiyada, 1948 yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida mavjud o‘xshash qonun - qoidalar bor ekanligini qayd etish muhim ahamiyatga ega.

1945 yilgi Konstitutsiya muqaddimasida Panchasiladagi insonparvarlik tamoyillari olg'a suriladi. Davlat asosiga va Indoneziya xalqining hayotiga falsafiy dunyoqarashni shakllantiradi.

Muqaddimada deyilgan: "Mustaqillik har bir millatning tabiiy huquqidir, mustamlakachilik bu dunyoda bekor qilinishi lozim, chunki mustamlakachilik Insonparvarlik va Adolat tamoyillari bilan muvofiq emas... Shu bilan birga, Indoneziya, davlat hukumatini o'rnatishi, barcha Indonez xalqini himoya qilishi va ularning Indoneziyaning to'la tabiiy yeridan va umumiy boyliklaridan foydalanish imkoniyatini yaratishi zarur. Dunyoda mustaqillik, mustahkam tinchlik va ijtimoiy adolatga asoslangan tartibni ta'minlashga o'z hissasini qo'shishi zarur."

Sukarnoning Panchasila falsafasi 1955 yildan 1965 yilgacha gullab yashnadi. O'sha paytda Sukarno Indoneziyaning haqiqiy falsafasi mujassamlashgan Panchasila haqida har doim gapirardi. Sukarnoning fikriga ko'ra, Indoneziyaning madaniyati va an'anasida Hindiston madaniyati (Hindu-Budda), G'arb (Xristian) va Arab (Islom) madaniyatlarining ta'siri bo'lgan.

Setelah memperhatikan isi dalam pembahasan di atas, maka dapat penulis tarik kesimpulan sebagai berikut.⁵⁴

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, yozuvchi tomonidan quyidagi xulosaga kelinadi:

1. Filsafat Pancasila adalah hasil berpikir/pemikiran yang sedalam-dalamnya dari bangsa Indonesia yang dianggap, dipercaya dan diyakini sebagai sesuatu (kenyataan, norma-norma, nilai-nilai) yang paling benar, paling adil, paling bijaksana, paling baik dan paling sesuai bagi bangsa Indonesia.⁵⁵

1. Pancasila falsafasi fikr natijasi ya'ni Indoneziya millatining ich-ichidagi o'ylagan fikrlari, ishonchi va haqliligi xuddi biror narsaning Indoneziya millati uchun eng to'g'ri, eng odil, eng dono, eng yaxshi, eng aniq ekanligi deb tushunsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

⁵⁴ Drs. Soewarno M.Hum. Falsafah Pancasila Sebagai Dasar Falsafah Negara Indonesia. Purwokerto.2008 19-bet

⁵⁵ O'sha bet.

2. Fungsi utama filsafat Pancasila bagi bangsa dan negara Indonesia yaitu:⁵⁶

- a) Filsafat Pancasila sebagai pandangan hidup bangsa Indonesia
- b) Pancasila sebagai dasar negara Republik Indonesia
- c) Pancasila sebagai jiwa dan kepribadian bangsa Indonesia

2. Indoneziya davlati va millati uchun Panchasila falsafasining asosiy funksiyalari :

- a) Panchasila falsafasi Indoneziya millati hayotiy qarashlari sifatida.
- b) Panchasila Indoneziya Respublikasi davlatining fundamenti sifatida.
- c) Panchasila Indoneziya millatining ilg'or maqsadi sifatida.

3. Falsafah Pancasila sebagai dasar falsafah negara Indonesia, hal tersebut dapat dibuktikan dengan ditemukannya dalam beberapa dokumen historis dan di dalam perundang-undangan negara Indonesia seperti di bawah ini :

3. Panchasila falsafasi Indoneziya falsafasi asosi hisoblanadi, va u Indoneziya davlati tomonidan chiqarilgan qonunlarda va bir qancha tarixiy hujjatlarda keltirib o'tilgan. Masalan, quyidagi hujjatlarda:

- a. Dalam Pidato Ir. Soekarno tanggal 1 Juni 1945.
- b. Dalam Naskah Politik yang bersejarah, tanggal 22 Juni 1945 alinea IV yang kemudian dijadikan naskah rancangan Pembukaan UUD 1945 (terkenal dengan sebutan Piagam Jakarta).
- c. Dalam naskah Pembukaan UUD Proklamasi 1945, alinea IV.
- d. Dalam Mukadimah Konstitusi Republik Indonesia Serikat (RIS) tanggal 27 Desember 1945, alinea IV.
- e. Dalam Mukadimah UUD Sementara Republik Indonesia (UUDS RI) tanggal 17 Agustus 1950.
- f. Dalam Pembukaan UUD 1945, alinea IV setelah Dekrit Presiden RI tanggal 5 Juli 1959⁵⁷
- a. Ir. Sukarnoning 1945 yil 1 iyundagi nutqida.

⁵⁶ O'sha bet

⁵⁷ O'sha bet.

b. Siyosiy qo‘lyozmaning 1945 yil 22 iyun IV qismida, keyinchalik 1945 yil Konstitutsiyaning ochilishida qo‘lyozma programmasi o‘zgartiriladi (mashhur Jakarta xartiya nomi bilan)

c. 1945 yil Konstitutsiyaning IV qismida.

d. 1945 yil 27 dekabrda Shimoliy Indoneziya Respublikasi Konstitutsiya muqaddimasining IV qismida.

e. 1950 yil 17 avgustda Indoneziya Respublikasining Vaqtinchalik Konstitutsiya Muqaddimasida.

f. 1945 yil Konstitutsiyaning e‘lon qilinishida, IV qismida, keyinchalik 1959 yil 5 iyulda Indoneziya Respublikasi Prezidenti dekretida.

Keanggotaan badan ini dilantik pada tanggal 28 Mei 1945, dan mengadakan sidang pertama pada tanggal 29 Mei s/d 1 Juni 1945. Dalam sidang pertama tersebut yang dibicarakan khusus mengenai dasar negara untuk Indonesia merdeka nanti. Pada sidang pertama tersebut 2 (dua) Tokoh membahas dan mengusulkan dasar negara yaitu Muhammad Yamin dan Ir. Soekarno.

1945 yil 28 mayda Guruh a‘zolari majlisi boshlanadi. 1945 yil 29 may va 1 iyunda Indoneziya keyinchalik mustaqil bo‘lganidan keyin davlatning asosi qanday bo‘lishi zarurligi haqida gapirib o‘tiladi. Muhammad Yamin va Sukarno davlat asosi haqida o‘zlarining maqsadlarini taklif qilishadi.⁵⁸

Tanggal 29 Mei 1945, Muhammad Yamin mengajukan usul mengenai calon dasar negara secara lisan yang terdiri atas lima hal, yaitu :

1. Peri Kebangsaan
2. Peri Kemanusiaan
3. Peri Ketuhanan
4. Peri Kerakyatan
5. Kesejahteraan Rakyat

1945 yil 29 mayda, Muhammad Yamin 5 ta asosdan iborat , davlat asosiga nomzod, g‘oyasini taqdim etadi. Bular:

⁵⁸ Junaidi Farhan. Sejarah Lahirnya Pancasila. Sebagai Ideologi & Dasar Negara. (Panchasilaning tug‘ilish tarixi. Davlatning asosi va mafkurasi sifatida). Jakarta.2011 2-bet

1. Millatparvarlik
2. Insonparvarlik
3. Olloh yagonaligi
4. Xalq birligi
5. Xalq farovonligi

Selain secara lisan M. Yamin juga mengajukan usul secara tertulis yaitu :

1. Ketuhanan Yang Maha Esa
2. Persatuan Indonesia
3. Rasa Kemanusiaan Yang Adil dan Beradab
4. Kerakyatan yang Dipimpin oleh Hikmat Kebijaksanaan dalam

Permusyawaratan/ Perwakilan

5. Keadilan Sosial bagi Seluruh Rakyat Indonesia
1. Yagona va Quدراتli Xudoga ishonch
2. Indoneziya birligi
3. Xaqgo'y va madaniyatli odamzot
4. Ichki birdamlik yordamida, vakillar o'rtasidagi munozaralar orqali

amalgam oshiriladigan xalq hokimiyati

5. Indoneziyaning barcha xalqlariga nisbatan ijtimoiy adolat

Kemudian pada tanggal 1 Juni 1945 Ir. Soekarno (Bung Karno) mengajukan usul mengenai calon dasar negara yaitu :

1. Nasionalisme (Kebangsaan Indonesia)
2. Internasionalisme (Perikemanusiaan)
3. Mufakat atau Demokrasi
4. Kesejahteraan Sosial
5. Ketuhanan yang Berkebudayaan

1945 yil 1 iyunda Ir Sukarno(Bung Karno)o'zining davlat asosi modelini taqdim etadi. Bular:

1. Millatparvarlik
2. Insonparvarlik
3. Ikki tomonlama hamkorlik yoki Demokratiya

4. Ijtimoiy Farovonlik
5. Ilohiyot (Xudojo'ylik) madaniyati.

Kelima hal ini oleh Bung Karno diberi nama PANCASILA, lebih lanjut Bung Karno mengemukakan bahwa kelima sila tersebut dapat diperas menjadi Trisila, yaitu:

1. Sosio nasionalisme
2. Sosio demokrasi
3. Ketuhanan.

Besh asosdan iborat bu modelga Sukarno tomonidan Panchasila nomi berildi, Bung Karno taklif qilgan beshta asosni umumiyashtirib Uchta asosga keltiradi.

1. Ijtimoiy millatparvarlik
2. Ijtimoiy demokratiya
3. Ilohiyot (Xudojo'ylik)

Selanjutnya oleh Bung Karno tiga hal tersebut masih bisa diperas lagi menjadi Ekasila yaitu GOTONG ROYONG.

Mung Karno tomonidan bu uch asos yanada qisqartirilib, Yagona(bitta)asosga “o‘zaro yordam”jamlaydi.

Selanjutnya filsafat Pancasila mengukur adanya kebenaran yang bermacam-macam dan bertingkat-tingkat sebgai berikut:

1. Kebenaran indra (pengetahuan biasa);
2. Kebenaran ilmiah (ilmu-ilmu pengetahuan);
3. Kebenaran filosofis (filsafat);
4. Kebenaran religius (religi).

Bundan tashqari, Pancasila falsafasi quyidagi turli va serqirra me'yoriy bilimlar bilan birgalikda keladi.

1. Haq hislar (umumiy bilim);
2. Ilmiy haqiqat (ilm-fan);
3. falsafiy haqiqat (falsafa);
4. diniy haqiqat (din)

Har bir asos o'z ichiga ko'plab g'oyalarni mujassamlashtirgan. Indoneziya millati Garuda qushini millatning ramzi sifatida tanladi, chunki Garuda o'ziga butunlay ishonadigan qush, shuningdek kuchli va harakatchan qushdir. U osmonda uchayotgan vaqtida o'zini nazorat qila oladi, boshqalar nazorat qilishini yoqtirmaydi. Garuda jasurlik ramzidir, U o'zining hududini himoya qila oladi, o'zgalarni hududini garchi kichikroq qushning maydoni bo'lsada hurmat qiladi. Oltin rang buyuk xalq va ichki ruh ramzidir. Garuda qushi oltin rangda, qanotlarini kuch bilan o'ngga qarab silkitib turibdi. Tanasida Pancasiladagi besh asos ramzi ham turibdi. O'rtadagi qalqon ya'ni falsafiy kuchlilik, chidamlilik, qalqon o'rtasidagi uzuq chiziq esa ekuvator ya'ni Indoneziyaning geografik turgan joyini ramzi hisoblanadi. Ikkita oyog'ida Indoneziya millatining shiori Java tilida "Bhinneka Tunggal Ika" . Indoneziya tilida "Berbeda - beda namun tetap Satu" "Turli xil bo'lsada, bir". Indoneziya millati axiyri 1945 yil 17 avgustda mustaqillikka erishib, ozod davlat bo'ldi. Aynan shu yerda tarixiy haqiqat bor . Panchasila ramzi hisoblanmish Garuda qushida bu tarixiy sana aks ettirilgan. Uning har ikki qanotlaridagi patlarining soni 17 tadan, ya'ni bu 17 avgust Indoneziyaning mustaqillik kuni sanasini beradi. Dumidagi patlarining soni 8 ta ya'ni sakkizinchi oy bo'lmish avgust oyini ma'nosini beradi. Bo'ynidagi 45 ta patlari esa 1945 yilni anglatadi. Shunday qilib, Garuda qushi to'rtta ma'noni o'ziga jamlagan. Bular: falsafiy, geografik, ijtimoiy va tarixiy. Garuda qushi Hindu va Buddist mifologik afsonasida keltirib o'tiladi. Afsonaga ko'ra Garuda yarim qush (qanotli, tumshuqli, tirnoqli) va yarim odam (qo'llari va oyoqlari) sifatida tasvirlanadi. Garuda xudo Vishnuni ko'tarib yurgan. Qalqon Indoneziya davlatining mudofaa ramzidir. Qalqondagi shakl besh qismga bo'linadi: o'rtada bitta yulduz va uning yonlarida oq va qizil bilan to'rt qismga bo'linadi(qizil-oq rang Indoneziya milliy bayrog'i ranglari ramzi, ya'ni qizil jasurlik , oq tinchlik ramzidir. Shaklning atroflari kichik bir qora chiziqlar bilan ajratiladi. O'rtasidan ikkita katta qora chiziq o'tgan . Bu qora chiziqlar Indoneziyaning ekuvator chizig'ida joylashganligi ramzidir.Qalqondagi har bir tasvir Panchasiladagi asoslarni ramzi bilan bo'g'liq.

Yagona Yuduz. Birinchi kuch: Alloh taologa iymon keltirish. Qalqondagi besh qirrali oltin yulduzda Indoneziyadagi kuchli beshta dinlar: Islom, nasroniylik, hinduiylik, buddaviylik va ko'hna qavm ijtimoiy g'oyalari tasvirlangan.

Oltin zanjir. Ikkinchi kuch: Insonparvarlik ya'ni adolat va xulq- atvor. Zanjir kichik halqa bo'yicha bir biriga bog'langan, insonlar bir-biriga yordam berish ma'nosini anglatadi. Bilakuzukdagi aylana halqalar ayollarni aks ettiradi, kvadrat halqalar esa erkaklar ma'nosini beradi.

Kashtan daraxti. Uchinchi kuch: Indoneziya birligi. Kashtan daraxti Indoneziyaning ildizli daraxtlaridan biri, har bir ildizi uzun ya'ni yerning tagiga juda chuqur kirib ketgan. Bu Indoneziyaning birligini bildiradi. Bu daraxtning ko'plab ildizlari mavjud. Bu Indoneziyani madaniyati, turli xil bo'lsada birligini bildiradi.

Yovvoyi buqa boshi. To'rtinchi kuch: Xalqni boshqaruvi ya'ni maslahat kengashining dono yetakchilari tomonidan. Javaning yovvoyi buqasi ijtimoiy hayvon. biror bir masalani yechimini topishda maslahat kengashi bilan hal qilishni nazarda tutilgan. Indoneziya millatining butun oila sifatida tasvirlangan..

Sholi va paxta. Beshinchi kuch: Butun Indoneziya xalqiga ijtimoiy adolat. Sholi va paxta(oziq –ovqat va kiyim-kechak ma'nosini beradi) tasvirlangan. Indoneziya xalqi uchun guruch nihoyatda katta ahamiyatga ega. Paxta ham insoniyat uchun juda kerak mahsulot. Bu ikki narsa Indoneziya millatini ijtimoiy kelib chiqishi, mavqeidan qat'iy nazar teng ekanligining ramzidir. Bu degani kommunizm mafkurasini olib boorish emas. Inson qadrining yetuk darajasidan dalolatdir.

Sukarno O'zbekistonda

Indoneziya Prezidenti Sukarnoning sobiq, SSSRga tashrifi 1956 yilning 28 avgustidan 13 sentabrigacha davom etdi. Ushbu tashrif mobaynida Sukarno Boku, Moskva, Sankt-Peterburg, Volgograd, Sochi, Yekaterinburg, Toshkent, Samarkand, Ashxobod shaharlari bilan tanishdi. Indoneziya Prezidentining O'zbekistonga sayohati 4 - 6 sentyabr kunlariga to'g'ri keldi. U uch kun davomida o'zbek xalqining

aziz mehmoni bo'lishga muyassar bo'ldi.⁵⁹

Sobiq Ittifoq bo'ylab Sukarnoga mehmonboshi qilib sobiq SSSR Oliy Soveti prezidiumi raisining o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti Prezidiumining raisi Sharof Rashidov tayinlangan bo'lib, bu xizmat salkam ikki hafta davom etdi. Sukarno bilan birga Indoneziyaning sobiq SSSRdagi favqulodda va muxtor elchisi L.N.Pilar, Indoneziya parlamenta raisining birinchi o'rinbosari Zaynul Orifin, ikkinchi o'rinbosari Arudji Kartavinata, Prezident kabinetining boshlig'i A.K.Pringodigo, Janubiy Sumatra gubernatori Vinaro Danuatmodjo, parlament a'zosi doktor Sukiman Virsandjoyo, doktor I.Leymane, Sutarno Xoadi- Sudibo, Davlat sanoat bankining vitse-gubernatori doktor Sumanyang, Tashqi ishlar ministrligi direktorantining mudiri Suvito Kusumovidagdo, shuningdek, Indoneziya harbiy bosh shtabining oliy ofitseri, Tashqi ishlar vazirligining a'zolari, mamlakat matbuot xodimlari O'zbekistonga kelgan edilar. Yuksak lavozimdagi mehmonni O'zbekiston poytaxtida Respublika Oliy Sovetining raisi A.X.Xakimov, O'zbekiston Kommunistik partiyasi markaziy komitetining birinchi kotibi N.A.Muhitdinov, o'sha paytdagi Respublika rahbarlari, madaniyat xodimlari nomidan akademik shoir G'afur G'ulom, din arboblari nomidan O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy nazorati prezidiumining a'zolari qori Fozilxo'ja Sodiqxo'jaev, qori Ziyovuddin Boboxonov, qori Sokin Farmonovlar kutib oldilar.

O'zbekistan poytaxti Toshkentning salkam yarim million aholisi mehmonlarni qo'lida gullar bilan kutib oldi. Ushbu tashrif Uzbekiston matbuoti tomonidan keng yoritilgan tarixiy xodisa bo'lib qoldi.

Sukarno bir oz dam olganidan keyin "Tilla shayx" jome masjidiga bordi. Bu yerda uni mufti eshon Boboxon Ibn Abdul Majidxon va O'rta Osiyo hamda Qozog'iston musulmonlari diniy nazoratining boshqa ruhoniylari birgalikda kutib oldilar. Indoneziya Prezidenti namoz o'qigandan keyin masjidda to'plangan musulmonlar bilan suhbatlashdi. U o'z suhbatida "Men juda uzoq yerdagi mamlakatdan, Osiyo bilan Avstraliya o'rtasida, Hind okeani bilan Tinch okeani

⁵⁹ N.Nasimov. Sukarno va O'zbekiston. Toshkent. "Fan" nashriyoti. 214- bet.

o'rtasida joylashgan mamlakatdan bu yerga keldim. Men sizlarga Indoneziya xalqidan salom keltirdim. Indoneziya Respublikasida "Panchasila" prinsiplari asosida turli tabaqalarning vakillari o'z dinlariga erkin amal qiladilar", - dedi.⁶⁰

O'sha paytda xorijdan kelgan yuqori martabali mehmonning masjidida joynamoz to'shab, oddiy musulmonlar bilan birgalikda namozxonlik qilishi misli ko'rilmagan hodisa edi. Jahon proletar inqilobi bosib olgan xalqlarga kommunizm qurib, baxtli jamiyatga erishishni tashviqot qilayotgan xudosizlar jamiyati, dinlarni, ayniqsa, islom dinini quvg'inga olgan, din peshvolarini qatag'on qilgan, xalqini haq-huquqsiz etgan, ma'naviyat va ma'rifatni umuman yo'q qilishga, tilini esdan chiqarishga erishayotgan qizil imperiya rahbarlari uchun Sukarnoning harakati chegarasiz harakatga o'xshab ketgan edi o'shanda. Ammo, mehmonni to'xtatishning iloji yo'q. Unga qayerda va nima qilishi kelishilgan. Hamma ko'riladigan joylar nomi protokollashtirilib, imzolangan. Sukarno tashrifi dindorlarga kuch bagishlab, ularga dalda bo'libgina qolmay, qalban islom diniga e'tiqodlarini yanada jipslashtirdi. O'sha davr matbuotida Sukarno tashrifiga bag'ishlangan maqolalarni, xabarlarini o'qib diqqat qilsangiz, Indoneziya Prezidentining ko'pgina vaqti islom dini va uning peshvolari bilan uchrashishlarga qaratilganini kuramiz.

"O'zbekiston ovozi" gazetasi, 1956 yil, 6 sentabr. "Mening bilishimcha, sizlarning orangizda musulmonlar ko'p. Shu sababli, men, sizlarning orangizda musulmoncha –"assalomu aleykum" so'zlari bilan tabriklashni istayman",- degan edi. Sukarno 5 sentyabr kuni "Paxtakor" stadionida o'zbek xalqi vakillari bilan uchrashganida. Indoneziyada xilma-xil dinlarga rioya qiluvchi kishilar yashaydi. Indoneziyada musulmonlar, xristianlar, buddistlar bor. Shunday bo'lsa ham, Indoneziya xalqi o'zini yaxlit bir xalq deb hisoblaydi va indoneziyaliklar bir-birlarini indonezcha "merdeka" so'zi bilan tabriklaydi. "Merdeka" ozodlik demakdir"⁶¹.

Uning bu tashrif chog'ida Moskvada bo'lganida ulug' shayxlar va avliyolar qabrini ziyorat qilishga bo'lgan umidini sobiq SSSRning Yevropa qismi va Sibir yerlaridagi musulmonlar diniy qo'mitasi raisi mufti Shokir Qiyomiddinov va Moskva

⁶⁰ N.Nasimov. Sukarno va O'zbekiston. Toshkent. "fan" nashriyoti.215- 216- bet.

⁶¹ N.Nasimov. Sukarno va O'zbekiston. Toshkent. "fan" nashriyoti.216- bet.

viloyati musulmonlar masjidining imom xatibi Qamariddin Solixovlar bilan bo'lgan suhbatida bildirgan edi. Uning bu istaklaridan biri ikki buyuk shaxs Xoja Ismoil Al-Buxoriy va Shoxi Zindada abadiy orom topgan Abbos o'g'li Qusam Muhammad payg'ambar avlodining qabrlarini ziyorat qilish edi. Indoneziyalik ulug' mehmon mezboblarni hayratda qoldirdi. U arabcha matnni nafaqat o'qib bilishda, balki so'zlarning ma'nosini tushuntirib berishda ham bilimdon bo'lganligini ko'rsatgan edi. Sukarno o'z davrida otasi yordamida arabcha o'qishni mashq qilgan va maktablarda ham 1913 yilgacha arab alifbosi o'rganilib, keyinchalik lotin alifbosiga o'tilgan edi. Lotin alifbosiga o'tilgani bilan u ustoz va qayn otasi Umar Said Chokroaminoto xonadonidan "Qur'oni Karim", Rizo Qorining "Qutibi Sithna", Xoja Ismoil Al-Buxoriyning "Sahih ul- Buxoriy" kabi kitoblarini hijjalab o'qishga o'rgangan edi. Uning tarjimai xolida musulmon olamida bu kitoblar tarjimasiz o'rganilishi zarur deb hisoblashgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, Sukarnoning ezgu niyati Samarqandda Xoja Ismoil al-Buxoriy va Shoxi Zinda maqbaralarini ziyorat etishi sir bo'lmagan. Uning O'zbekistonga kelishidan yana bir ulug' orzusi Amir Temur, Ulug'beklar yashagan va shu yerdagi ziyoratgohlarni bir ko'rish, umuman, Samarqanddagi qadimiy yodgorliklardan baxramand bo'lish edi. Amir Temur haqida Sukarno Ibn Arabshoxning "Amur Temur tarixi" kitobidan xabardor bo'lgan.

Ushbu kitob golland tilida Golius tomonidan tarjima qilingan. Kechqurun indoneziyalik mehmonlar Muqimiy nomli musiqa drama va komediya teatrida bo'lib, san'at ustalarining konsertini tomosha qildilar. 5 sentyabr kuni teatrdan chiqqan mehmonlar teatr yonidagi O'zbekiston milliy ko'li atrofidagi madaniyat va istiroxat bog'ini tomosha qildilar. 5 sentyabr kuni Indoneziya Prezidenti boshchiligidagi mehmonlar O'zbekiston sanoati bilan tanishib, bu tanishuv Chirchik shahrida u yerda energetik, ximik, mashinasozlar bilan uchrashib, mutaxassislar bilan suhbatlar qilindi. So'ngra sobiq Orjonikidze tumanidagi "Qizil tong", "O'zbekiston" kolxozi paxta maydonlarida bo'lgan Indoneziyaning hukumat delegatsiyasi paxtakorlar bilan tanishib, qizg'in suhbatlar qilishga erishdilar. Sukarno bu yerda kolxoz raisi A.Matqobilov bilan uzoq suhbatlashib, uning paxta haqida qiziqarli fikrlariga katta e'tibor berdi. Ushbu jamoa ulug' mehmon sharafiga katta ziyofat va konsert

uyushtirdi. O'sha davr matbuotining yozishicha, Prezident Sukarno raqs vaqtida musiqachilardan birining yoniga kelib, uning qo'lidagi doirani oldi va zavq bilan childirma chalib turdi. Bundan ruhlangan mehmonlarning ko'pchiligi o'yinga tushdilar. Sukarno qo'lidagi childirmani Sharof Rashidovga topshirib, o'zi xam o'yinga tushib ketdi.

Kolxozchilar nomidan Prezident Sukarnoga O'rta Osiyoda urchitilgan "Do'st" nomli Qorabayir oti sovga qilindi. Sukarno sayohat rejasi asosida Nizomiy nomidagi Davlat pedagogika institutida bo'ldi.

Sukarno boshliq indoneziyalik mehmonlar institutdan chiqib, "Paxtakor" stadioniga bordi va u yerda katta nutq so'zladi. Ushbu stadionda shaharning 75 ming aholisi qatnashdi. Mitingda akademik, shoir G'afur G'ulom, kolxoz raisi Hamroqul Tursunqulov, "Tashselmash" zavodi slesari V.Titovlar so'zga chiqib, Indoneziya Prezidentini va u orqali musulmon mamlakati fuqarolarini qizg'in tabriklashdi.

"Men bu yerda o'zimdan oldin so'zga chiqqan barcha notiqarning tabrigi uchun tashakkur izhor qilaman, - dedi Sukarno stadionda qilgan nutqida - Bu yerga kelganingiz uchun Sizlarning hammangizga tashakkur izhor kilaman. Shu stadionga to'planganingiz uchun sizlarga minnatdorchilik bildiraman".

Sukarno o'z nutqida o'zi boshchiligida Indoneziya xalqini mustakillikka chiqqanligi haqida quyidagi fikrni bildirdi: "Indoneziyada milliy kurash 1908 yilda boshlandi. Dastlabki paytda uncha katta bo'lmagan miqyosda boshlangan bu harakat asta- sekin kengaya bordi va butun Indoneziya xalqini, Indoneziyada yashovchi 80 million kishining hammasi shu harakatga tortildi. Biz 1945 yil 17 avgustda o'zligimizni tiklab, mustaqil davlatimizni e'lon qildik"⁶². Sukarno o'z davlat tizimining asoslarini quyidagicha ta'rifladi: "Ozodlik, farovonlik, tenglik va tinchlik g'oyasi Indoneziya xalqining qalbida yashab keldi".

1956 yilning 6 sentabr kuni Sukarno boshliq mehmonlar Samarqandga keldilar, "Zarafshon" viloyat gazetasi indonez tilida ulug' mehmonni qutlab, "Indonez xalqining farzandi Sukarnoga salom" sarlavxa ostida maxsus saxifa

⁶² "O'zbekiston ovozi" gazetasi.7 –sentabr 1956.

bag'ishladi. Gazeta ushbu sonida samarqandlik olimlar va viloyat ahlining ko'zga ko'ringan kishilarining musulmon davlati sardorini tabriklagan maqolalarini ham chop etgan edi. Shuningdek, "Zarafshon" gazetasi markaziy matbuot maqolalaridan foydalangan holda, Sukarno hayoti va ijodidan, rasmiy ma'lumotlar berish bilan ham o'z saxifasini rang-barang va qiziqarli qilib nashr etgan edi.

"Ertasi kuni sahar payti meni uyg'otishdi. Tashqarida quyosh hukmron, hamma joyga suv sepilgan, ko'zga tashlanadigan yerlar toza, yo'lning ikki tomonida odamlar, son-sanoqsiz militsiya, fuqaro kiyimidagi xavfsizlik tashkilotining xodimlari. Butun shahar mehmon kutishga chiqqandek. Xuddi shu paytda Bibixonim masjidi tomonidan usti ochiq qora rangli mashinalar kelayotgani va mashinalar ustidagi odamlarning tik turgan holda shaharliklarning olqishlariga qo'llarini silkitib javob berayotganini ko'rdik. Bir necha daqiqadan keyin mashinalar bizning yonimizga kelib to'xtadi. Oldindagi mashinadan tushgan bo'yi baland kishining bosqalardan ajralib turganini ko'rish mumkin edi. U oq kostyum va shim kiygan qora ko'zoynak taqqan, qo'lida salkam bir metrlik xassa, yuzida iliq tabassum bor edi. U mashinadan tushgach, biz tomonga yurdi, bir necha kishi bilan uchrashdi, shular qatori men bilan ham. Har bir kishiga qo'l uzatar ekan, "Assalomu alaykum"! - deb aytar edi. Shu paytda to'rt-besh kishi uni Registon tomonga yurishga undadi. Bu kishilar uni qo'riqlovchilari ekanligini bildik. Bu voqea juda, ham tez bo'lganidan, odamlarning ko'pchiligi sezmadi. Keyinchalik bu odamning Sukarno ekanini bildik. Shunday qilib men, o'shanda Sukarno bilan ko'rishgan ekanman..."⁶³

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Jahon ijtimoiy-siyosiy hayotida o'z ezgu harakatlari bilan yangilik kiritgan shaxs sifatida tan olingan Sukarno uch yarim asrdan ko'proq vaqt davomida o'zgalar tomonidan "Niderlandiya Hindistoni" deb nomlanib, mustamlaka holatidagi davlatning mustakillikka erishishi uchun kurashganlarning oldingi safida turgan. U mustaqil Indoneziya Respublikasining tamal toshini qo'ygan arboblardan biridir.

⁶³ N.Namozov. Sukarno va O'zbekiston. Toshkent."Fan" nashriyoti.2004. 220-bet.

Sukarno rahnamoligida 1945- yilning 17- avgustida mustamlaka bo'lgan mamlakatni mustaqil deb e'lon qiladi. U 1945- yildan 1968- yilgacha mamlakatni boshqarib, deyarli hamma soxalarda reformalar o'tkazdi, xalqni kolonializm asoratidan ozod kildi. U hamisha o'z xalqi bilan yashab, butun hayotini shu vatan farovonligiga bag'ishladi. Prezident sifatida Sukarnoning eng asosiy yutug'i ko'p millatli indonez davlatini tuzishda siyosiy, iqtisodiy va madaniy soxalaridagi jahonshumul tarixiy ishlarida muhim vosita bo'lgan davlat tilini rivojlantirishda ham tashabbuskor bo'ldi. Ko'p millatli mamlakatda milliy tillarda o'qitiladigan maktablar ochtirdi, boshqaruv organlariga turli millat vakillarining o'qimishli kishilarini taklif qildirdi, xalqlar o'rtasidagi do'stlik va tinchlik munosabatlarini mustahkamlashga intildi. Xalk xo'jaligini butunlay qayta qurish, kolonializmdan qolgan mustamlaka asoratidan xalos bo'lgan holda mamlakatni industriallashtirish, davlat ishlarini rejali ravishda olib borish va milliy iqtisodiy baza tuzish ham Sukarno tomonidan birinchi bor hayotga tadbqiq etilgan edi. O'shanda millati va elatidan qat'iy nazar Sukarno tuzgan davlat fuqarosining haq-huquqi teng bo'lgani holda, xalqlar o'rtasidagi do'stlik va tinchlik g'oyasi davlat siyosatining bosh mezoni bo'lgan. Shuningdek, mamlakatdagi barcha dinlarning tengligi, xammasiga bir xil davlat siyosati, demokratik prinsiplarga rioya kilingan holda asosiy iqtisodiy davlat sektorini tuzish va rivojlanishiga olib kelganini ko'rish mumkin edi.

Sukarno ko'p millatli davlat tuzdi, uning iqtisodini milliy an'analarga suyangan holda amalga oshirdi. Mamlakatning ichki va tashki siyosatini bir yo'sinda, bog'lik holda olib borib, rivojlanishi uchun yo'l ochib berdi.

Sukarnoning ijtimoiy faoliyati faqat siyosat bilan chegaralanmay, uning faoliyatida insonga xos bo'lgan yaratuvchanlik ishlari ko'zga yaqqol tashlanadi. Sukarno yuksak g'oya uchun qomusiy bilimga ega bo'libgina qolmay, balki u tarixchi, yozuvchi, filosof olim ham edi. Shu bois Sukarno o'z davrining buyuk arbobi sifatida ko'pgina mamlakatlar Prezidentlaridan o'z bilimi bilan ajralib turgan. U oliy ma'lumotli, bir necha xorijiy tillarni mukammal bilgan, o'tkir notiq, rassom, quruvchi-injener va o'z e'tiqodiga ishonuvchan mehribon ota, qadrdon do'st xam bo'lgan.

Sukarno XX asrning 40 - yillarida jahon milliy xalq harakatining sardori sifatida ham yuqori o'rinlardan joy olgan. Ma'lumki, Indoneziya 1945 -yilda, Hindiston 1947- yilda, Xitoy Xalq Respublikasi 1949- yilda mustakillikka erishgan edi. Ko'rinib turibdiki, Sukarnoning xalq milliy ozodlik yo'lidagi harakatlari boshqa Sharq davlatlaridan oldin boshlangan va tabiiyki, uning boshqa mamlakatlarga ijobiy ta'siri bo'lganligini aytish joizdir. Ayniqsa, uning tashabbusi bilan 1955 yilda Indoneziyaning Bandung shahrida Osiyo va Afrika davlatlarining konferensiyasini o'tkazishi diqqatga sazovordir. Shu jahon anjumanida ma'lum va mashhur bo'lgan "Panchasila" g'oyasini ham takidlab o'tadi. Konferensiya Indoneziya davlati uchun besh prinsip: barcha dinlarni hurmat qilish, vatanga muhabbat, gumanizm, davlatning mustaqilligi va suvereniteti, sotsial farovonlik deb tanlangan dasturni qabul qilgan. Bunda Sukarnoning rahbarligi va xizmatlari yuqori baholandi.

Umumiy xulosalar

Indoneziyaning XX asr birinchi yarmida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy hayotida beqarorlik hukm surgan deb aytish ayni muddaodir. Indonezlarning mustamlakachilikka qarshi milliy - ozodlik harakatlari avjiga chiqib, yetuk millatparvarlar yetishib chiqdi. Bularga Sukarno, Muhammad Hatta, Masyumi, Shahrir, Tan Malaka, Mohammad Yamin, Abdul Hamid II va boshqalarni sanab o'tishimiz mumkin. Sukarno Niderlandiya mustamlakachiligiga qarshi keng ijtimoiy namoyishlar olib borganligi uchun bir marta qamoq jazosini o'taydi. Qamoqda ham u mustamlakachilarga qarshi harakatlarini to'xtatmaydi. "Indoneziya Menggugat!" asarini yozadi. Bu asarda imperializm va zamonaviy imperializm, o'rtasidagi farqlar ham keltirib o'tiladi. Sukarnoning fikriga ko'ra, eski imperialism bilan zamonaviy imperializmning farqi shundaki, shakl o'zgargan xolos, mazmum, ma'no, maqsad avvalgidek. Bu asari Sukarnoni tez fursat ichida mashhur qildi. Butun Indoneziyaga uning obro'si oshib ketdi. Bundan Niderland mustamlakachilari qo'rqib uni ozodlikka chiqarishga majbur bo'lishadi.

Keyinchalik Sukarno 1933 yil mart oyida "Mencapai Indoneziya Merdeka" ("Indoneziya mustaqillikka erishish") asarini yozadi. Bu asarda Indoneziyaning mustaqil emas ekanligini baralla aytib, Indoneziya xalqini ozodlik uchun kurashga chaqiradi. Asarning kirishida Tilak tomonidan aytilgan "Hanya rakyat yang mau merdeka bisa merdeka"⁶⁴, (" Faqat xalq mustaqillikni istasagina, mustaqillikni qo'lga kiritish mumkin"). Bu asari uchun Sukarnoga hech qanday sudsiz umrbodsurgun jazosi tayinlanadi. Sukarno sakkiz yil Flores va Sumatra orolida surgundaligida bolalar teatrini tashkil etadi. Millatparvar Behbudiy aytganidek, "Teatr – ibratxonadur". Keyinchalik Yaponiya mustamlakachiligi davrida Sukarno siyosiy hayotga qaytib, Indoneziya mustaqilligini qo'lga kiritishga yetakchilaridan biriga aylandi. Sukarno bu maqsadiga yetadi. Indoneziyani mustaqillikka erishtiradi. Buning uchun u bir insonga beriladigan qobiliyatlarning barchasidan unumli foydalanadi. Sukarnoning bu darajaga yetishida birinchi navbatda otasi

⁶⁴ Soekarno. Mencapai Indonesia Merdeka. 1933. 3-bet.

Sukemining hissasi ulkan. Bundan tashqari unga millatparvarlikdan saboq bergan ustozi Chokroaminotoning xizmati katta bo'ldi. Keyinchalik Bandungda talabalik yillarida g'arb, kommunistlar va islom siyosiy- falsafasini chuqur o'rganadi va o'zining Indoneziya ijtimoiy erkinligi g'oyasini yaratadi.

Jahon ijtimoiy-siyosiy hayotida o'z ezgu harakatlari bilan yangilik kiritgan shaxs sifatida tan olingan Sukarno uch yarim asrdan ko'proq vaqt davomida o'zgalar tomonidan "Niderlandiya Hindistoni" deb nomlanib, mustamlaka holatidagi davlatning mustakillikka erishishi uchun kurashganlarning oldingi safida turgan. U mustaqil Indoneziya Respublikasining tamal toshini qo'ygan arboblardan biridir. U 1945 yildan 1968 yilgacha mamlakatni boshqarib, deyarli hamma soxalarda reformalar o'tkazdi, xalqni kolonializm asoratidan ozod kildi. U hamisha o'z xalqi bilan yashab, butun hayotini shu vatan farovonligiga bag'ishladi. Prezident sifatida Sukarnoning eng asosiy yutug'i ko'p millatli indonez davlatini tuzishda siyosiy, iqtisodiy va madaniy soxalaridagi jahonshumul tarixiy ishlarida muhim vosita bo'lgan davlat tilini rivojlantirishda ham tashabbuskor bo'ldi. Ko'p millatli mamlakatda milliy tillarda o'qitiladigan maktablar ochtirdi, boshqaruv organlariga turli millat vakillarining o'qimishli kishilarini taklif qildirdi, xalqlar o'rtasidagi do'stlik va tinchlik munosabatlarini mustahkamlashga intildi. Xalk xo'jaligini butunlay qayta qurish, kolonializmdan qolgan mustamlaka asoratidan xalos bo'lgan holda mamlakatni industriallashtirish, davlat ishlarini rejali ravishda olib borish va milliy iqtisodiy baza tuzish ham Sukarno tomonidan birinchi bor hayotga tadbqiq etilgan edi. O'shanda millati va elatidan qat'iy nazar Sukarno tuzgan davlat fuqarosining haq-huquqi teng bo'lgani holda, xalqlar o'rtasidagi do'stlik va tinchlik g'oyasi davlat siyosatining bosh mezoni bo'lgan. Shuningdek, mamlakatdagi barcha dinlarning tengligi, hammasiga bir xil davlat siyosati, demokratik prinsiplarga rioya qilingan holda asosiy iqtisodiy davlat sektorini tuzish va rivojlanishiga olib kelganini ko'rish mumkin edi.

Sukarno ko'p millatli davlat tuzdi, uning iqtisodini milliy an'analarga suyangan holda amalga oshirdi. Mamlakatning ichki va tashki siyosatini bir yo'sinda, bog'liq holda olib borib, rivojlanishi uchun yo'l ochib berdi.

Sukarnoning ijtimoiy faoliyati faqat siyosat bilan chegaralanmay, uning faoliyatida insonga xos bo'lgan yaratuvchanlik ishlari ko'zga yaqqol tashlanadi. Sukarno yuksak g'oya uchun qomusiy bilimga ega bo'libgina qolmay, balki u tarixchi, yozuvchi, filosof olim ham edi. Shu bois Sukarno o'z davrining buyuk arbobi sifatida ko'pgina mamlakatlar Prezidentlaridan o'z bilimi bilan ajralib turgan. U oliy ma'lumotli, bir necha xorijiy tillarni mukammal bilgan, o'tkir notiq, rassom, quruvchi-injener va o'z e'tiqodiga ishonuvchan mehribon ota, qarddon do'st xam bo'lgan.

Sukarno XX asrning 40 yillarida jahon milliy xalq harakatining sardori sifatida ham yuqori o'rinlardan joy olgan. Ma'lumki, Indoneziya 1945 yilda, Hindiston 1947 yilda, Xitoy Xalq Respublikasi 1949 yilda mustakillikka erishgan edi. Ko'rinib turibdiki, Sukarnoning xalq milliy ozodlik yo'lidagi harakatlari boshqa Sharq davlatlaridan oldin boshlangan va tabiiyki, uning boshqa mamlakatlarga ijobiy ta'siri bo'lganligini aytish joizdir. Ayniqsa, uning tashabbusi bilan 1955 yilda Indoneziyaning Bandung shahrida Osiyo va Afrika davlatlarining konferensiyasini o'tkazishi diqqatga sazovordir. Shu jahon anjumanida ma'lum va mashhur bo'lgan "Panchasila" g'oyasini ham takidlab o'tadi. Ushbu konferensiyaning jahonning barcha davlatlari bilan o'zaro manfaatdorlik, tenglikka asoslangan tinch-totuv yashash prinsiplari "Panchasila"ning hayoti va boshqalar tomonidan qo'llab-quvvatlangani, Indoneziyaning obro'-e'tiborini dunyoga keng tanitdi va mamlakat Prezidentining ulug'lanishiga olib keldi. Sukarno o'z faoliyati davrida yuzga yaqin mamlakatlarga tashrif qilgan edi. Sukarnoning xorijiy davlatlarga qilgan tashriflarining eng ko'zga ko'rinarlisi, uning 1956 yilda O'zbekistonga kelishi bo'lgan. Yuqori martabali mehmon Toshkent, Chirchiq, Samarqand shaharlarida bo'ldi, mehnatkash o'zbek xalqi yaratuvchanligiga tasanno o'qidi. Ushbu vatan farzandlari Ibn Sino, Amir Temur, Ulug'bek va Boburlar nomi Indoneziyada ma'lum va mashhur ekanligini aytib, ular tug'ilgan yurt tuprog'iga sajda qildi. Samarqand nafaqat Sharq, balki butun dunyo mamlakatlariga ziyo taratgan shahar deb ta'rifladi. Amir Temur qabri va Ulug'bek rasadxonalariga tashrif buyurib, ular ruhiga bag'ishlab "Qur'on"dan tilovat o'qidi.

Buyuk davlat arbobi Sukarnoning g'oyaviy maqsadi, siyosiy qarashlari o'z xalqini kolonial tizimdan qutqarish va mustaqil milliy davlat tuzish edi. Uning bu maqsadi 1945 yil 17 avgustda ro'yobga chiqdi. Sukarno tuzgan buyuk davlat barhayot, demak, ana shu abadiylik ushbu shaxsning mehnati natijasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Davlat qonunlari, O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti asarlari

- 1.1. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T;. “O'zbekiston”, 2011.
- 1.2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – T;. “O'zbekiston”, 2008.
- 1.3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T;. “O'zbekiston”, 1999.
- 1.4. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T;. “O'zbekiston”, 1997.
- 1.5 Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – T;. “O'zbekiston”, 1996.
- 1.6. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqassasdir. – T;. “O'zbekiston”, 1996.
- 1.7. Karimov I.A. O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati mavzuidagi Xalqaro konferensiyasida so'zlagan nutqi. // “O'zbekiston adabiyoti va san'ati”, 2014.

II. Ilmiy adabiyotlar

O'zbek tilida:

- 2.8. Ahmedova M. Falsafa. – T;. “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2006.
- 2.9. Azatyan A. Indoneziya Respublikasi. –T;. “Qizil O'zbekiston” 1956.
- 2.10. Falsafa : ensklopedik lug'at. /O'z RFA I. Mo'minov nomidagi falsafa va huquq instituti. – T;. “O'zbekiston milliy ensklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.
- 2.11. Namozov N. Sukarno va O'zbekiston . Toshkent. O'zR FA “Fan” nashriyoti, 2004. – 360 b.
- 2.12. Namozov N. Indoneziya. Samarqand. “Zarafshon” nashriyoti. 2001.
- 2.13. Po'latova D., Qodirov M., Ahmedova M., Abduhalimov A., Shozamonov Sh. Falsafa tarixi (Sharq falsafasi). – T;. “TDSHI”, 2013.
- 2.14. Po'latova D., Qodirov M., Ahmedova M., Sulaymonov J., Boboyeva E.,

Shozamonov Sh. Yangi va eng yangi davr Sharq falsafasi. – T; . “TDSHI”, 2013.

- 2.15. Sadibekova B.D, Mahkamov S.B, Yusupov I.A. Indoneziya Respublikasi. Toshkent.“TDSHI” 2008.

Rus tilida:

- 2.16. Андреев М. *О развитии государственного капитализма в экономике Индонезии* Ж. Проблемы Востоковедения, 1959.
- 2.17. Kapitsa M., Maletin N., Sukarno. –M;. 1980.
- 2.18. Лаврентьев А. К. Тайная война против Индонезии. – М;. 1960

Ingliz tilida:

- 2.19. Bernhard Dahm. Sukarno and the struggle for Indonesian Independence. London. 1969.
- 2.20. Cindy Adams. Sukarno: An autobiography as Told to Cindy Adams. New York. 1965
- 2.21. Cindy Adams. My Friend the Dictator. New York. 1967.
- 2.22. Colin Brown. A short history of Indonesia. (Indoneziyaning qisqacha tarixi. Australia.”Talisman”, 2011.
- 2.23. Donald E. Weatherbee. Ideology in Indonesia: Sukarno’s Indonesian Revolution. Australia. “Talisman”, 1966
- 2.24. Hal Kosut. Indonesia: The Sukarno Years. Jakarta. 1967
- 2.25. Soekarno quotes, when interviewed by BBC News, October 1957. (Sukarno sitatalari. BBC Yangiliklari tomonidan olingan suhbat. 1957-yil oktabr.)

Indonez tilida:

- 2.26. Bung Karno. Penyambung Lidah Rakyat Indonesia. (Indoneziya xalqining birlashishi) Jakarta.1965
- 2.27. Junaidi Farhan. Sejarah Lahirnya Pancasila. Sebagai Ideologi & Dasar Negara. (Panchasilaning tug‘ilish tarixi. Davlatning asosi va mafkurasi sifatida). Jakarta. 2011
- 2.28. Pidato Sukarno hari Merdeka tahun 1961.(Sukarnoning 1961-yil Mustaqillik kunida so‘zlagan nutqidan.

- 2.29. Sampir Sri Wahyuni . Kebijakan Ekonomi Soekarno Tahun 1959-1965.(Sukarnoning 1959-1965 yillardagi iqtisodiy siyosati)Palembang. 2014
- 2.30. Soekarno. Mencapai Indonesia Merdeka.(Indoneziyaning mustaqillikka yetishi). Jakarta. 1930
- 2.31. Soekarno. Revolusi di Indonesia. (Indoneziyada revolutsiya) Jakarta .1967.
- 2.32. Soekarno. Indonesia menggugat. (Indoneziya ayblaydi.) Bandung.1933

III. Gazeta va jurnallar maqolalari

- 3.33. Sukarno O‘zbekistonda. “O‘zbekiston ovozi” 1956-yil 6-sentabr.
- 3.34. Sukarno Samarqandda. “O‘zbekiston ovozi” 1956-yil 7-sentabr.
- 3.35. Po‘latova D. Igna bilan quduq qazib. Toshkent. “ O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi. 15. 05.2015. 20 soni.

IV. Internet saytlari.

- 4.36. Amanda Isabella. Ir.Soekarno Presiden Pertama Republik Indonesia (Doktor. Sukarno Indoneziya Respublikasining birinchi Prezidenti)
<http://www.google.go.id>
- 4.37. Ayzha Rizvy Abigail Anggorodi. Moral leadership. (Ma’naviy yetakchi) Indonesia. <http://www.viewblog.go.id>
- 4.38. Paulus Londo.“Ketuhanaan” Dalam Pemikiran Soekarno.<http://www.google.go.id>
- 4.39. Sejarah masa kecil Sukarno.(Sukarnoning bolalik davri.)
<http://www.google.go.id>
- 4.40. Yonna Ayundria. Moral leadership: Personal improvement and sense of crisis. (Ma’naviy yetakchi: Shaxsiy kamolot va tanazzulni sezish) Indonesia.
<http://www.viewblog.go.id> .

ILOVALAR



PRESIDENT SUKARNO

1945 - 1967

FOUNDER AND FIRST PRESIDENT
REPUBLIC OF INDONESIA

Prezident Sukarnoning sitatalari

1. Berikan aku 1000 orang tua, niscaya akan kucabut semeru dari akarnya, berikan aku 1 pemuda, niscaya akan kuguncangkan dunia” . (Bung Karno).

Menga 1000ta keksani beringlar, men Semeruni tog‘ini qulataman. Menga bir o‘spirinni beringlar, aniq dunyoni larzaga keltiraman.

2. “Tidak seorang pun yang menghitung-hitung: berapa untung yang kudapat nanti dari Republik ini, jikalau aku berjuang dan berkorban untuk mempertahankannya”. (Pidato HUT Proklamasi 1956 Bung Karno).

Hech kim hisoblamagan: Bu respublikadan qanchalar baxtliligimni, uni himoya qilish uchun kurashaman va jon fido qilaman.

3. “Jadikan deritaku ini sebagai kesaksian, bahwa kekuasaan seorang presiden sekalipun ada batasnya. Karena kekuasaan yang langgeng hanyalah kekuasaan rakyat. Dan diatas segalanya adalah kekuasaan Tuhan Yang Maha Esa.” (Soekarno).

Azoblanishim ko‘rsatadiki, bir president hukumronligida chegara bor. Chunki mangu hukmronlik faqat xalq hukumronligidir. Bularning yuqorisida Olloh taolo turibdi.

4. “Apabila di dalam diri seseorang masih ada rasa malu dan takut untuk berbuat suatu kebaikan, maka jaminan bagi orang tersebut adalah tidak akan bertemunya ia dengan kemajuan selangkah pun”. (Bung Karno).

Agar, biror insonni ichida biror yaxshilik qilishga hali ham qo‘rquv hissi bo‘lsa, aniq shu inson kelajakka bir qadam ham tashlolmaydi.

5. “Bangsa yang besar adalah bangsa yang menghormati jasa pahlawannya.” (Pidato Hari Pahlawan 10 Nop.1961).

Qahramonlarini hurmat qilgan,e‘zozlaydigan millat, , ulug‘ millatdir.

6. “Perjuanganku lebih mudah karena mengusir penjajah, tapi perjuanganmu akan lebih sulit karena melawan bangsamu sendiri.” – Bung Karno.

Muammolarim juda oson chunki mustamlakachilar haydab chiqarildi, ammo muammolaring juda qiyin chunki millating o‘zingga qarshi.

7. “Bangsa yang tidak percaya kepada kekuatan dirinya sebagai suatu bangsa, tidak

dapat berdiri sebagai suatu bangsa yang merdeka.” (Pidato HUT Proklamasi 1963 Bung Karno).

“Xalq sifatida o‘zi kuchi ishonmayman millat, mustaqil xalq sifatida tura olmaydi.”(1963 Bung Karno e‘lon nutqi yilligi).

8. “.....Bangunlah suatu dunia di mana semua bangsa hidup dalam damai dan persaudaraan.....” (Bung Karno).

Dunyo Xalqlari uyg‘oning, tinchlik va birodarlikda yashaylik.

9. “Kita belum hidup dalam sinar bulan purnama, kita masih hidup di masa pancaroba, tetaplah bersemangat elang rajawali“. (Pidato HUT Proklamasi, 1949 Soekarno).

Biz hali to‘lin oy nurida yashamayapmiz, biz hali ham o‘tish davrida yashayapmiz, lochindek kuchli bo‘lish lozim.

10. “Apakah Kelemahan kita: Kelemahan kita ialah, kita kurang percaya diri kita sebagai bangsa, sehingga kita menjadi bangsa penjiplak luar negeri, kurang mempercayai satu sama lain, padahal kita ini asalnya adalah Rakyat Gotong Royong” (Pidato HUT Proklamasi, 1966 Bung Karno).

Bizning kamchiligimiz nimada: Bizning kamchiligimiz, biz kamroq ishonamiz xalq ekanligimizga, biz boshqa davlatdan ko‘chirmachi bo‘lib qolamiz, axir biz aslida o‘zaro hamkorlik qiluvchi xalqmiz.

11. “Laki-laki dan perempuan adalah sebagai dua sayapnya seekor burung. Jika dua sayap sama kuatnya, maka terbanglah burung itu sampai ke puncak yang setinggi-tingginya; jika patah satu dari pada dua sayap itu, maka tak dapatlah terbang burung itu sama sekali.” (Sarinah, hlm 17/18 Bung Karno).

erkak va ayol qushning ikki qanoti kabidir. Agar ikki qanot bir xil kuchg ega bo‘lsa qush tog‘ning eng cho‘qqisigacha ucha oladi, agar qushning qanotlaridan biri jarohatlansa qush unchalik ucholmaydi.



**Patung Lilin Soekarno di Bangkok, Thailand
(Bangkokdagi Sukarnoning mumdan haykali. Tailand)**



Toshkentliklar Prezident Sukarnoni qizg'in tabriklamoqdalar

Kepada Rakyat Uzbekistan!

Di Indonesia ada peribahasa yang berbunyi: “ Jauh dimata, dekat dihati”.

Hari ini saya meninggalkan Tasykent. Tetapi hati saya akan selalu teringat kepada saudara - saudara dan kebaikan budi saudara – saudara. Juga usaha sandara diatas lapangan ketatanegaraan dan kemasyarakatan tidak akan mudah saya lupakan.

Karena itu saya meninggalkan Tasykent dengan berteru kepada saudara:

“Selamat tinggal. Selamat bekerja. Hiduplah persahabatan kita. Jauh dimata, dekat dihati”.

Soekarno.

(Bung Karno)

6 september 1956.

O‘zbekiston xalqiga!

Indoneziyada shunday maqol bor: “ Yo‘l uzog‘ -u, ko‘ngil yaqin”.

Men bugun Toshkentdan jo‘nab ketmoqdaman. Ammo Siz va Sizning mehmondo‘stligingiz qalbmida hamisha saqlanib qoladi. Sizning davlat va ijtimoiy qurilish sohasida sarflayotgan kuch va g‘ayratingizni ham unuta olmayman.

Toshkentdan jo‘nayotib, Siz do‘stlarim bilan xayrlasha turib aytamanki: “Xush vaqt qolingiz. Baxtiyor mehnat qilingiz. Yashasin bizning do‘stligimiz. “Yo‘l uzog‘ -u , ko‘ngil yaqin”.

Sukarno,

(Bung Karno),

1956 yil 6 sentabr.